

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“ _____ ” _____ 2013 y.

**5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“MAXSUS MAKTABLARDA RASM DARSLARINING
KORREKSION TARBIYAVIY YO'NALGANLIGI”**

MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITI RUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Bazarova Sarvinoz Mexriqulovna
401 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: dots.P.Xudoyberdiyev

Ishni himoyaga tavsiya etaman dots.P.Xudoyberdiyev

(imzo)

BMI Defektologiya kafedrasi yig'ilishining qarori
bilan (Qaror №_ ___.2013 y) himoyaga tavsiya
etilgan.

Kafedra mudiri: G`.Arifxodjaev

(imzo)

JIZZAX - 2013

MUNDARIJA

KIRISH	3-9
---------------------	------------

I.BOB. Maxsus maktablarda rasm darslarining korreksion yo'nalganligi.

1.1. Maxsus maktablarda rasm darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	10-20
1.2. Maxsus maktablarda tasviriy san'at darslari asosida milliy kasb -hunarlarni qadrlashga o'rgatib borish.....	21-32

II.BOB. Maxsus maktablarda tasviriy san'at darslarida korreksion ishlar tashkil etish.

2.1. Maxsus maktablarda tasviriy san'at darslari orqali bolalar estetik didini tarkib toptirish.....	33-40
2.2. Maxsus maktablarda rasm darslari yordamida bolalarda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish usullari.....	41-46
2.3. Maxsus maktab rasm darslarida bolalar lo'g'at boyligini rivojlantirish.....	47-48

Xulosa.....	49-50
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat.....	51-52
Ilovalar.....	53-65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezident islom Karimovning 2012 yil 7 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligini 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan "Inson manfaatlari, xuquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizni yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir" mavzusidagi ma'ruzasida O'zbekistonda ho'qumatimiz sog'lom avlodni voyaga yetkazish va shakillantirishda alohida e'tibor berilayapti. Buning dalili sifatida "Sog'lom avlod uchun" davlat dasturi, uni boshqarish, bajarish uchun ho'qumat tomonidan katta mablag'larni ajratish "Sog'lom avlod uchun" davlat ordenining joriy qilinishi "Ulug'bek", "Ekoson" va boshqa jamg'armalarning tashkil qilinishini ko'rsatish mumkin.

"Jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish va tarbiyalash, hamda davolash uchun ixtisoslashgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi" – deyiladi yangi ta'lim qonunida. Respublikamizda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ushun maxsus muassasalar tashkil etildi. Bu muassasalarda aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiya oladilar.

Ushbu yordamchi maktabning asosiy vazifasi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida umumta'lim qoidalariga rioya qilish, ulardagi ikkilamchi nuqsonlarini kelib chiqishining oldini olish va mavjud nuqsonlarini iloji boricha korrreksiyalash yo'li bilan hayotda o'z o'rinlarini topishga ko'maklashishdan iboratdir.

Ta'lim mazmunini xalqimizning milliy qadriyatlari, tarixiy obidalari xususidagi ma'lumotlar bilan boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish kabi bir qator chora-tadbirlarni bosqichma - bosqich amalgam oshirish davr talabi ekanligi davlatimiz tamonidan aniq belgilandi.

O'tgan qisqa vaqt mobaynida mamlakatimizning barcha jabhalarida ta'lim islohatlari juda izchillik va tezlik bilan amalgam oshirilib, ko'plab ijobiy yutuqlarga erishildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ta'lim islohotining bosh mezoni yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama rivojlangan komil inson andozalariga mos bilim ko'nikma va malakalarni berish, ularni ona-vatanga, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashdir".

Zero, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talabalarning uchinchi bosqichi XXI asr maktabini shakillantirishda iboratdir. 2005-2009 yillarga mo'ljallangan "Maktabta'limini rivojlantirish Davlat Umumta'lim dasturi"ni ishlab chiqish va unda belgilangan vazifalarga ko'ra, maktablarni rekonstruktsiya qilish, ta'limning yangi modelini yaratishga asos soluvchi chora-tadbirlarini faollashtirishga oid ishlar hozirgi kunda qizig'in olib borilmoqda. Bu o'rinda umumta'limning bir qismi bo'lgan maxsus ta'lim tizimi va mazmunini ham tubdan qayta isloh qilish davr talabidir.

Keyingi 5-10 yil mobaynida imkoniyati cheklangan nogiron bolalarni ijtimoiy qo'llash, ta'lim tizimi va mazmunini qayta ko'rib chiqish, uni hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirish masalari hal qilinmoqda.

Aholida extiyojli bolalarni ilk yoshdan ta'limga tayyorlash, psixologo-tibbiy pedagogik yordamlarni kompleks yo'naltirilgan holda olib boorish masalariga ko'proq e'tibor berilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarning qobiliyati darajasida umum va maxsus korreksion ta'lim olish, sog'lom tengdoshlari orasida integratsiya qilinishi inklyuziv ta'limning ilmiy- amaliy kosepsiyasini yaratish va amaliyotga keng joriy qilish tashkil xalqaro miqyosda, shuningdek, O'zbekistonda ham keng targ'ib qilib kelinmoqda.

2000 yilda Dakar- Senegalda qabul qilingan "Ta'lim-hamma uchun" dasturi talablarining asl mohiyati ham birorta bola, shu jumladan, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limdan chetda qolmasligi masalasi qayd etilgan edi. Savol tug'iladi: "Bu borada maxsus ta'lim sohasida qanday ishlar amalgam oshirilmoqda?".

Umumta'lim maktablarning 12 yillik majburiy ta'limga o'tishi munosabati bilan maxsus ta'limning barcha yo'nalishlari – uning tizimi, mazmuni va o'qitish muddati qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu sohada mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda maxsus maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning nuqsoni, individual xususiyatlari va qobiliyatlarini e'tiborga oigan holda RTM Maxsus ta'lim bo'limi metodistlari va ularga biriktirilgan tadqiqotlar ishtirokida modeznizatsiya qilingan DTSlar asosida aqli zaiflar, eshitishda va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha korreksion Davlat ta'lim talablarini ishlab chiqishga kirishildi. Aqli zaif bolalar ta'lim yo'nalishi va korreksion fanlar bo'yicha DTSlari yaratildi.

Aqli zaif bolalar maktablarning boshlang'ich sinflari uchun korreksion ta'lim Davlat talablari va dasturlari ishlab chiqildi.

Yordamchi maktab o'quvchilarini qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda birinchi va ikkinchi darajali korreksion ta'lim Davlat talablari va dasturlari yaratildi. Endilikda eshitishda va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar umumta'lim Davlat talablari asosida o'tiladilar. Tayanch harakat a'zolari falajlangan bolalar ta'limi umumta'lim DTSlari asosida va yordamchi maktab KTDTIlari asosida amalgam oshiriladi. Bu turdagi bolalar ta'lim talablarini takomillashtirish ustida mutaxassislar tomonidan qizg'in ish olib borilmoqda.

Ushbu ishlab chiqilgan talablar umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun ham qo'yilgan bo'lib, ular maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishning samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga samarali moslashtirishga imkon beradi. Yangi takomillshtirilgan korreksion ta'lim Davlat talablari asosida dastur, darslikning yangi avlodini yaratish, umumta'lim maktablarida inklyuziv sinf va guruhlarda ta'lim oluvchi imkoniyati cheklangan bolalarga yakka tartibda korreksion-pedagogik yordam berish maqsadida individual dasturlar, metodik tavsiyalar yaratilmoqda, bu borada mutaxassislar tomonidab keng qamrivli ishlar olib borilmoqda.

O'zbek xalqining mustaqillika erishishi faqatgina qadimiy qadriyatlarga qaytish bilan cheklanib qolmasdan, balki ko'pgina muhim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy, ma'rifiy, madaniy muammolar hal etish masalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Shulardan bittasi bu-kelgusi avlodning sog'lig'i va ta'lim tarbiyasidir.

Mustaqillka erishganimizdan buyon bu borada talaygina ishlar qilindi, imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa xalq sog'ligi va aqliy jihatidan yetuk bo'lishi davlat rivojlanishi va ravnaqida eng muhim va bosh maqsadlardan biridir. Chunki qaysi davlatda jamiyatda xalq aqliy jihatidan yetuk, komil ongli, yuksak, jismoniy sog'lom bo'lsa, shunchalik shu yurtning istiqloli nuravshon bo'ladi, yuksaladi. Shuning uchun ham yuqorida keltirilgan masalalar davlat siyosatining bosh va ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak. Shu masalarni amalga oshirish uchun Respublikamizda 1997 yil yangi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ishlab chiqildi.

Bunda Prezidentimizning sayi harakatlari beqiyosdir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Kelajak avlod haqida qayg'urish sog'lom barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishda intilishimiz milliy xususiyatlarimiadir".

Darxaqiqat tarixga nazar soladigan bo'lsak, qadim-qadimdan buyuk bobolarimiz orzusi maqsadi yagona, ya'ni farzandlarimiz kelajak avlod ta'lim-tarbiyasi bilan shug'illanish aqlan yetuk, barkomol inson qilib tarbiyalash bo'lgan.

O'z davrining olimu donosi sifatida Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida shunday degan edi: "Insonni vujudidagi maqsad-eng oily baxt, saodatga erishuvidir. Baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobilyatlarning rivojlanishi o'z-o'ziga bo'lvermaydi, balki bu masalada qaysidir bir muallim yoki rahbarga muxtojligi tug'iladi".

Darhaqiqat olimning fikriga bir qancha ma'no bor. Har qanday bolaga yoshligidan e'tibor berilsa, uni ilk yoshidanoq tarbiyasi bilan shug'illanish lozim. Ana o'sha olimu dono bobolarimizning davomchilari sifatida bizning yurtimizda tarbiya masalalariga juda katta e'tibor berib, uni ilk yoshdayoq tarbiyasi bilan shug'illanish lozim.

Bobolarimiz orzu qilgan bo'lsalar bugungi kunda bu orzularini ro'yobga chiqarib talaygina ishlarni amalgam oshirilmoqda. Mustaqil Respublikamizning barcha jabhalarida bo'lganidek maorif tizimida ham sezilarli ijobiy ishlar amalgam oshirilmoqda.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishni amalgam oshirish uchun harakat qilinmoqda. Shu maqsadga mukammal qo'llanmalar, darsliklar yoritilmoqda. Bunday hayrli ishlar faqatgina sog'lom bolalarimiz uchungina bo'lib qolmasdan, ruhiy va jismoniy jihatdan nosog'lom, ya'ni nuqsonli bolalarga ham bab-baravar tegishlidir. "Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davomida yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash, hamda davolash uchun iqtisoslashgan ta'lim muassasalari tashkil etildi", - deb uqtirib o'tilgan yangi Ta'lim to'g'risidagi qonunda. 1998 yil 203-sonli "Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish:, - deb shu to'g'risidagi qarorining 8-bandida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasi vazirlar kengashi viloyatlar va Toshkent shaxar hokimiyati, sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda Xalq ta'limi vazirligining 1998 yil 5-may 103-sonli buyrug'I bilan ushbu markazlarni Nizomi tasdiqlandi.

1993 yilning may oyidan e'tiboran barcha viloyat va shaxarlarda tashxis markazlari ish boshladilar.

Bu tashxis markazlari bolalarninuqsonlari, individual hususiyatlarini o'rganib chiqqan xolda maktab va boshqa maxsus o'quv muassasalarga yo'llanmalar berib, nuqsonli bolalarning nuqsonlarini o'z vaqtida o'rganishn, davolash, korreksiya-kompentsatsiya jamiyatda shaxs bo'lib shakillanishi, o'z o'rniga ega bo'lishlari uchun tanilmoqda. So'ngi yillarda rivojlanishda orqada qolgan bolalar va imkoniyati cheklangan bolalatning soni o'sib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Bu hodisa mahsus ta'lim sohasidagi mutaxassislardah samaradorligi yuqori bo'lgan yangi korreksion texnologiyalarni yaratishga da'vat etmoqda.

Maxsus ta'lim va tarbiyaga muxtoj bo'lgan bolaga yondashuvda undagi mavjud kamchiliklarni emas, balki saqlanib qolgan imkoniyatlar va funksiyalardan kelib chiqib, ularga tayangan holda korreksion ishlarni amalga oshirish lozim.

Tadqiqotning maqsadi:

Aqli zaif o'quvchilarda tasviriy san'at darslari orqali ulardagi kamchiliklarni korreksiyalash ularni rasmga oid bilimlarini shakllantirishni amalga oshirish uchun yangi uslub hamda vositalarini ishlab chiqish va asoslab berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifasi:

- Mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish va tashkil qilish.
- Boshlang'ich sinf aqli zaif bolalarning rasm darsi faoliyatini eksperimental o'rganish va natijalarini tahlil qilish.
- Rasm darsi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti:

Jizzax viloyati XTBga qarashli 32-sonli yordamchi maktab internati boshlang'ich sinf aqli zaif bolalar rasm darsi.

Tadqiqotning predmeti:

Boshlang'ich sinf aqli zaif bolalar tasviriy san'at rasm darsi jarayoni.

Tadqiqotning nazariy metodologik asosini O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta'lim tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va prinsiplari, o'ziga xos yo'nalishlari ta'lim – tarbiya jarayonining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rgatuvchi fanlar, O'zbekiston Respublikasining konstitusiyasi O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” korreksion pedagogikaga doir darslik va qo'llanmalar.

Ishning birinchi bobida maxsus maktablarda rasm darslarining korreksion yo'nalganligi. Maxsus maktablarda rasm darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Maxsus maktablarda tasviriy san'at darslari asosida milliy kasb - hunarlarni qadrlashga o'rgatib borish.

Ishning ikkinchi bobi Maxsus maktablarda tasviriy san'at darslarida korreksion ishlar tashkil etish. Maxsus maktablarda tasviriy san'at darslari orqali bolalar estetik didini tarkib toptirish. Maxsus maktablarda rasm darslari yordamida bolalarda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish usullari. Maxsus maktab rasm darslarida bolalar lo'g'at boyligini rivojlantirish.

Ilmiy amaliy ahamiyati:

Ishning natijalari aqli zaif o'quvchilarining kelgusi hayotga tayyorlash hamda rivojlanish ishlari mazmuni tuzilishiga oid ma'lumotlar defektologlar tarbiyachilar ruhshunoslar tomonidan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Aqli zaif bolalar kamchiligini korreksiyalashda juda katta ahamiyatga ega shuning uchun tasviriy faoliyat darslarini o'qitish usullarini takomillashtirish va turli xil usullardan foydalanilgan holda tashkillashtirish zarur. Aqli zaif bolalar barcha psixik proseslari va estetik gigiyenik tarbiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishning tarkibiy tuzilish:

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 5 paragraf, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

I.BOB. MAXSUS MAKTABLARDA RASM DARSLARINING KORREKSION YO'NALGANLIGI

1.1. Maxsus maktablarda rasm darslarini tashkil etishning o'ziga xos hususiyatlari

Yordamchi maktablarda olib borilayotgan ta'lim – tarbiya jarayonida tasviriy san'at darslari asosiy fanlardan biri sifatida qoraladi. Chunki, tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning badiiy – estetik dunyoqarashini boyitib borishga xizmat qiladi. Tasviriy san'at ta'sirida bolalarning hissiy bilish darajasi o'sib, aqliy va irodali sifatlari rivojlanib boradi. Qo'l motorikalarini korreksiyalash ishlari ham samarali bajariladi.

Bolalarni hayotdagi va san'atdagi go'zallikni sezish, tushunish, idrok etish va ular haqida mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, badiiy – estetik tasavvurini, dunyoqarashini rivojlantirish va boyitib borish, tevarak – atrof olamga ongli munosabat va madaniyatni tarbiyalash tasviriy san'atning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yordamchi maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning badiiy tarbiyasiga doir quyidagi vazifalarni nazarda tutadi:

- o'quvchilarda axloqiy tarbiyaning dastlabki elementlaridan biri sifatida go'zal, nafis narsalarni sezish, kuzatish, idrok, tasavvur va tahlil etish, taqqoslash, fikrlash, umumlashtirish, o'zlashtirish kabi sifatlarni o'stirish;
- tasviriy san'at asarlarida tasvirlangan voqea – hodisalar orqali o'quvchilarda ijtimoiy hayot hodisalarini kuzatishga o'rgatish va ular to'g'risida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish;
- o'quvchilarga tasviriy san'at mashg'ulot turlari - haqida tushuncha berish orqali ularning nazariy tushunchalarini yanada rivojlantirish;
- o'quvchilarga narsalarni shakli, tuzilishi, hajmi, bir – biridan ko'rinish jihatdan farqlanishi, taniqli belgilari haqida tushuncha berish, naqsh elementlaridagi ketma-ketlik va rangni his qila olishni o'rgatish;

- o'quvchilarning har xil materiallar asosida turlicha narsalar yasash, chizishga o'rgatish orqali ularning bilish faoliyati va mustaqilligini kuchaytirish, ijodkorligi va tashabbuskorligini yanada o'stirish;

- tasviriy san'at vositasida o'quvchilarni yaxshi odatlar, do'stona munosabat va o'zaro yordam ko'rsatish hamda tarixiy, milliy urf – odatlar, marosimlar, an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash;

- dekorativ xalq amaliy san'ati, O'zbekiston me'morchiligining o'ziga xos xususiyati bilan tanishtirish;

- milliy kasb – hunarlarni qadrlashga o'rgatib borish;

- tasviriy san'at orqali o'quvchilarning jonajon o'lka tabiatiga muhabbat, kishilarning ijtimoiy mehnatiga qiziqish va hurmat tuyg'usini tarbiyalash;

- o'quvchilarning badiiy – estetik didi, ekologik ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirish;

- o'quvchilarda badiiy madaniyatni tarbiyalash;

- yordamchi maktab o'quvchilarida mavjud bo'lgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etish maqsadida barmoq gimnastikalari, turli tasvirlash mashqlari, didaktik o'yinlarni o'tkazish asosida ularga badiiy tarbiya berish;

- yordamchi maktab o'quvchilarida badiiy ijodiy qobiliyatlarni, tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirish;

- yordamchi maktab o'quvchilarini atrof – muhitdagi narsa va hodisalarni ko'ra bilish va idrok etish asosida olingan estetik his – tuyg'u va tushunchalarni o'zlari chizayotgan rasmlarida aks ettira olishga o'rgatish;

- turli yordamchi vositalar va usullar yordamida o'quvchilarning tasviriy va qurish – yasash malakalarini rivojlantirish;

- yordamchi maktab o'quvchilarida ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, rang sezish, obrazli tasavvur etish kabi xususiyatlarni rivojlantirish;

- yordamchi maktab o'quvchilarini tasviriyl va dekorativ - amaliyl san'at, me'morchilik asoslari bilan tanishtira borib, ularning badiiy fikr doirasini yanada kengaytirish;

- yordamchi maktab o'quvchilarining tasviriyl san'atdan o'tkaziladigan amaliyl ishlar, badiiy qurish – yasash darslarida olgan bilim va malakalarini hayotda qo'llay olishga o'rgatish;

- yordamchi maktab o'quvchilarida atrof – muhitda ro'y berayotgan voqea – hodisalarga nisbatan estetik va emosional sezgirliklarni o'stirish;

- karton va rangli qog'ozlar, tabiiyl va tashlandiq materiallardan turli o'yinchoqlarni badiiy qurish – yasashga o'rgatish va boshqalar.

Yordamchi maktablarda tasviriyl san'atdan umumiy vazifalarni amalga oshirish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, elektron darsliklar va maxsus o'quv kinofilmlari hamda o'qituvchi - o'quvchilar uchun zarur adabiyotlar bilan ta'minlashni talab etadi. Tasviriyl san'at mashg'ulotlarining har biri aqli zaif o'quvchilarning. Nuqsonlarini tuzatishga yordam berishi, ularning shaxsiyl sifatlari va umumiy rivojlanishiga ijobiyl ta'sir etishi hamda har bir o'quvchining badiiy bilim doirasini boyitib borishi zarur shartlardan biridir. Buning uchun dastlabki tayyorgarlik ishlarini kuchaytirish, badiiy ta'lim-tarbiya jarayonini hayot va amaliyot bilan bog'langan holda o'quvchilarga yetkazish maqsadga muvofiqladir. Ana shunda o'quvchilarning badiiy-estetik madaniyatini milliy tarzda rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Yordamchi maktablarda tasviriyl san'atning o'qitilishida didaktik prinsiplarga alohida e'tibor beriladi. Ma'lumki, tasviriyl san'atdan bilim va malakalarni ongli o'zlashtirish o'quvchidan ma'lum darajada mustaqillik va faollikni talab etali. Aqli zaif o'quvchilar ko'pincha yuqori sinflarda ham sodda savol-topshiriqlarning yechimini topishda qiynaladilar. Shunga ko'ra, ularga imkon qadar tushunarli bo'lgan vazifalarni berish kerak bo'ladi. Buning uchun, avvalo, o'quvchida ishni bajarishga xoxish va o'z kuchiga ishonch bo'lishini tarbiyalash zarur.

Yordamchi maktab ta'limida ko'rgazmalilik muhim bo'lib, o'quvchining idroki, tasavvurini yanada rivojlantirishga imkon beradi. Aqli zaif bolalar ko'rgazmalilik orqali narsa, voqea – hodisalarning tashqi va ichki mohiyatini tushunib oladilar. Shu orqali ularning fikr yuritishi to'g'rilanib boradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, aqli zaif o'quvchilarning sezgisi, idroki, tafakkurining rivojlanganligi muhimdir. Chunki, aqli zaif bolalardagi asosiy nuqson tafakkurning rivojlanmaganligidir. Yordamchi maktab o'quvchilari tafakkurining asosiy kamchiligi yuzakilik, sekinlik, torlik, mustaqil emaslikda ko'zga tashlanadi. Shuning uchun yordamchi maktab ta'limi sodda bo'lishi, o'quv materiallari o'quvchilarga aniq va tushunarli tarzda berilishiga erishish muhimdir. Shuningdek, badiiy ta'lim jarayonida aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati va mustaqilligi birmuncha pastligi hamda faol emasligiga alohida e'tibor berish lozim. Bunda tasviriy san'at darslarini tashkil etish qanchalik yuqori darajada bulsa, bu faoliyat shaxs kamolotiga shunchalik katta ta'sir etadi.

O'quvchilar tasviriy san'atdan turli bilim, ko'nikma, malakalarni egallab borish bilan birga, o'zlarining faoliyatlarini takomillashtirib boradilar. O'quvchilardagi tasviriy faoliyat dastlab tahlil asosida amalga oshirilgan bo'lsa, u borgan sari mustaqil ijodiy ko'rinishga aylanib boradi. O'quvchining badiiy – estetik jihatdan rivojlanishi davomida ularda tasvirlash tajribalarining ortib borishi asosida badiiy faoliyati ijobiy xarakter kasb etadi. Bunda o'quvchining tasviriy faoliyatdan yangi yo'l va yo'nalishlarni qidirishga keng imkoniyat yaratiladi. Tasviriy faoliyat jarayonida o'quvchilar ma'naviy va badiiy – estetik jihatdan rivojlanib boradi. Ularning har qanday faoliyati ijtimoiy foydali faoliyatga aylanadi.

Tasviriy san'atdan o'quvchilarning badiiy – estetik tarbiyasida o'zbek musavvirlarining O'zbekiston tabiati, ijtimoiy hayoti, kishilarning mehnati aks ettirilgan milliy asarlardan shuningdek, she'r, hikoya, ertak, masallar, navruz bilan bog'liq rasm-rusumlar, qo'shiqlardan foydalanishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilar badiiy tarbiyasini yanada boyitish maqsadida ular bilan ko'proq tabiat bag'riga va muzeylarga sayr-sayohatlar uyushtirish, teatrlashtirilgan ko'rinishlar tashkil etishni kuchaytirish foydalidir.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish sharoitida o'quvchilarga tasviriy san'atdan iqtisodiy tarbiya berish orqali mehnatsevarlik, tejamkorlikni singdirish, shuningdek, ularning ekologik tarbiyasini amalga oshirishda tevarak-atrof, hayot, tabiat, amaliyot bilan bog'lanishi muhim masalalardandir. Ana shunda tasviriy san'atdan ta'lim-tarbiya ishlarining samarali mahsuli yuzaga keladi.

Eng muhimi o'quvchilar tasviriy san'atdan egallagan bilim va ko'nikma, malakalaridan hayotda foydalanishni nazarda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun har bir o'quvchi yil davomida dastur hajmidagi bilim, ko'nikma, malakalarini namoyish eta oladigan bo'lishi, tasviriy san'atning har bir turi bo'yicha mustaqil ishlay olishi kerak bo'ladi.

Mazkur dasturda tasviriy san'atdan mashg'ulot turlari quyidagi qismlardan tashkil topgan:

- Tayyorlov mashg'ulotlari.
- Borliqni idrok etish.
- San'atni idrok etish.
- Naturaga qarab rasm ishlash.
- Haykaltaroshlik.
- Dekorativ amaliy faoliyat.
- Badiiy-qurish-yasash.

O'qituvchi mazkur rejalashtirishdan foydalanganda avvalo maktabdagi shart-sharoitlar, o'quvchilarning badiiy bilim saviyasi, qiziqishiga alohida e'tibor qaratishi kerak. Shuni alohida qayd etish lozimki, o'qituvchilar o'z imkoniyatlari va maktabdagi, bolalar yashab turgan muhitdan kelib chiqqan holda taxminiy rejalashtirishda berilgan ba'zi mavzularni unga yaqin bo'lgan boshqa mavzular bilan almashtirishi mumkin.

Shuningdek, tasviriyl san'atdan mashg'ulot turlari buyicha har bir mavzuga ajratiladigan soatlar miqdorini sharoitdan kelib chiqqan holda ixtiyoriyl belgilash, ko'paytirish, kamaytirish va unga ayrim o'zgartirishlar kiritishga ruxsat etiladi. O'zgartirishlar kiritishda I-IV sinf o'quvchilari egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni e'tiborga olgan holda fikr yuritish muhim ahamiyatga egadir.

Tasviriyl san'atga doir mavzularni rejalashtirishda yil fasllari, mavsumiyl (qizil kalendar kunlari uchun) mavzuli rasmlar ishlashga ahamiyat berilgan bo'lib, mavzularning joylashish tartibida izchillik, ketma-ketlik va oddiydan murakkabga qarata borish qoidalariga alohida amal qilingan. Bu kabi foydali faoliyatlarning barchasi shu soha yo'nalishida samarali muvaffaqiyatlarga erishish imkonini beradi.

Mashg'ulot turlari mazmuni.tayyorlov mashg'ulotlari: Tayyorlov mashg'ulotlarining maqsadi yordamchi maktab o'quvchilarini o'qituvchi tomonidan berilayotgan ko'rsatmalarni tinglashga va anglashga, qalamni to'g'ri ushlashga (bosh va o'rta barmoq o'rtasida ushlashga. Ko'rsatgich barmoq bilan harakatlantarishga), rasm daftarni to'g'ri qo'yishga, o'chirg'ichdan to'g'ri foydalanishga (qog'ozning iflos bo'lib ketmasligi yoki yirtilib qolmasligi uchun qalam izini bitta yo'nalishda o'chirish), rang nomlarini tushungan holda o'zlashtirishga va farqlashga, turli xil geometrik figuralarni va murakkab bo'lmagan rasmlarni chizishga, ularni bo'yashga va zirh chizig'idan chiqmasdan bo'yashga o'rgatish kabilardan iborat.

Tayyorlov davrida o'qituvchining faoliyati asosan o'quvchilarning diqqatini bir nuqtga jamlashga, tasavvurlarini yanada o'stirish, idrokini, tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Bunday mashg'ulotlar odatda o'yin usulida tashkil etiladi. Buning uchun qurilish materiallari, turli xil geometrik shakllar, turli xil rangdagi va hajmdagi kartonlar, rasmlar tablisasi bo'lishi kerak.

Tayyorlov davrida asosiy e'tibor aqli zaif o'quvchilarning nafaqat koordinasiyasini korrektsiyalashga, balki mayda va umumiy motorikasini rivojlantirishga ham qaratilishi lozim.

Borliqni idrok etish:

O'quvchilarning tevarak-atrofdagi narsalar, voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini o'stirish. Ularning dunyoni bilish to'g'risidagi tushunchalarini hosil qilish.

O'quvchilarni jonajon o'lkamiz tabiati, kishilarni ijodiy mehnati bilan tanishtirish, hayvonot va o'simliklar dunyosiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

O'quvchilarning tevarak-atrof borlikdagi go'zallikni to'g'ri tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish. Ularning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalarini yanada kengaytirish. Badiiy tasavvur va ta'ssurotlarini boyitish, kattalar va o'z tengdoshlariga bo'lgai mehribonlik munosabatini tarbiyalash.

O'quvchilarning tabiatdagi turli fasl ko'rinishlarini idrok etish, narsalarning shakli, tuzilishi, rangi va o'ziga xos xususiyatlarini bilib olishni ta'minlashdan iborat.

San'atni idrok etish: O'quvchilarni suratlarni kuzatishga o'rgatish orkali ularda tasvirlangan narsalarni sezish, his etish, tasavvur qilishdan zavqlanish xislatlarini tarkib toptirish. O'quvchilarning ijobiy kayfiyatda bo'lishini ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali estetik didini tarbiyalash va badiiy didlarini rivojlantirish. Ayniqsa, ularni suratlardagi ranglarni sezish, bir-biridan farqlashga o'rgatish.

Turli mavzudagi voqea-hodisalar aks ettirilgan rasmlar vositasida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish. San'atni idrok etish asosida ularning estetik hissiyotini o'stirish.

O'quvchilarni tasviriy san'at turlari bilan tanishtirish. Xalq san'ati ustalari ijodi haqida ularga kengroq tushuncha berish.

O'zbek xalqining dekorativ amaliy san'ati buyumlariga nisbatan mehr-muhabbatini, milliy kasb-hunarlarimizga bo'lgan qiziqishini oshirish.

O'quvchilarni tasviriy san'at asarlari vositasida O'zbekiston xalqining o'tmish hayoti, me'morchilik yodgorliklari bilan tanishtirish, ularni tasviriy san'atning badiiy mazmunini mustaqil ifoda etishga o'rgatish. Shuningdek, ularda san'at asarlarini mustaqil o'rganib borish ko'nikmasini shakllantirish orqali nafosatli etib tarbiyalash.

Naturaga qarab rasm ishlash. O'quvchilarga naturadan rasm ishlashning o'ziga xos ahamiyati, tasviriy san'atda doir asbob-uskunalar, jihozlar, badiiy materiallar bilan tanishtirish va ulardan to'g'ri foydalanish haqida tushuncha berish. Oq qog'oz yuzasida turli chiziqlar chizishni, rasm ishlashni o'rgatish.

O'quvchilarni narsalarning tashqi ko'rinishi, nomi, shakli, hajmi, fazoviy holatiga ko'ra fikrlay olishga o'rgatish. Ularni ranglar bilan tanishtirish.

O'quvchilarni qalamdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, ularning qo'l harakatlarini rasm ishlashga moslashtirish orqali tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish.

O'quvchilarni tevarak-atrofdagi narsalar, voqea-hodisalarning o'xshash tomonlarini ma'lum chiziqlar vositasida topa bilishga, doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchaklarni tasvirlashga hamda ularni tik, yotiq, qiya tutash chiziqlar chizish orqali bir necha qismlardan iborat ekanligini tushungan holda ularning asosiy belgilarini ifodalay olishga o'rgatish.

O'quvchilarda tabiatning turli tuman ranglaridan zavqlanish, quvonish hissini tarbiyalash, turli ranglarning nomini bilish va ularni bir-biridan farqlash va qiyoslashga o'rgatish.

O'quvchilarga mo'yqalamni qog'oz yuzasida qanday yuritish qoidalarini ko'rsatish. Mo'yqalamda yumaloq, ilon izi chiziqlar, burchaklar, kesishgan, qisqa va ma'lum uzunlikdagi chiziqlar chizishni o'rgatish.

Asta-sekin o'quvchilarda murakkabroq narsalar rasmini ishlash malakalarini hosil qilish orqali ularning tasviriy san'atga bo'lgan havas va ishtiyoqlarini oshirib borish.

Rasm ishlashda o'quvchilar diqqatini narsalar qismlarining joylashuviga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishga jalb etish.

O'quvchilarda narsalarning katta-kichikligini va geometrik shakllarning bir-biridan, ya'ni doiraning ovaldan farklashni anglash va turli yo'nalishdagi chiziqlarini tasvirlay olish ko'nikmasini hosil qilish.

O'quvchilarning rasm ishlash jarayonida ranglarni his etish tuyg'usini o'stirish, ularda narsani o'ziga qarab rasm ishlashda turli narsalarning shakllarini to'g'ri chiza olish malakasini-hosil qilish.

O'quvchilarni tabiat manzarasi, tevarak-atrof, hayotdagi voqelikni amaliy aks ettirishga undash. Rasm ishlashda turli materiallardan foydalanishga erishish.

O'quvchilarning syujetli rasmlar ishlash malakasini mustahkamlash, jozibali tasvirlarni yaratish, qog'oz yuzasida har qanday tasvirni to'g'ri joylashtirish ko'nikmasini mustahkamlash va mustaqil rasm ishlash qobiliyatini o'stirish muhim hisoblanadi.

O'quvchilarga loy va gplastilin haqida hamda undan tartibli foydalanish to'g'risida tushuncha berish. O'quvchilarni xalq ustalarining mehnati va ijodi bilan tanishtirish orqali loy hamda plastilindan narsalar yasashga bo'lgan qiziqishini tarbiyalash. Ularni loy va plastilinda ishlashning o'ziga xos xususiyatlari (yumshoqligi, cho'ziluvchanligi, eziluvchanligi) bilan tanishtirish.

Loy va plastilindan ishlash orqali o'quvchilarning narsalar shakli, tuzilishini idrok etish va tasvirlash ko'nikmasini shakllantirish, ularning qo'l harakati va muskullarini rivojlantirish. Loyni kaftlar orasida ezish, zuvala qilib yumaloqlash asosida narsalar shaklini yasash va ularni bezash orqali o'quvchilarga estetik ta'sir ettirish.

Ularga chiroyli idish-tovoq va o'yinchoqlar yasashni o'rgatish.

O'quvchilarni xalq kulolchiligi asosida loy va plastilindan turli narsalar yasash bilan shug'ullantirish orqali, ularning estetik didi, badiiy ijodiy qobiliyatini o'stirish.

O'quvchilarga dekorativ rasm ishlash to'g'risida tushuncha berish. Ularga real tasvirlardan (o'simlik va mevalar, geometrik shakllar, fazoviy jismlar, parrandalar, hayvonlar, hashoratlar, buyumlar, odam tasviri va hokazo) stilizasiyalash usulida naqsh elementlarini hosil qilish va naqsh kompozitsiyalarini tuzilishmalarini o'stirish. Shuningdek, xalq amaliy san'atidagi turli naqsh usullari bilan tanishtirish va ularga oddiy naqshlar ishlashni o'rgatish. O'quvchilarning mustaqil naqsh tuzish ko'nikmasini hosil qilish. Turli materiallardan naqsh kompozitsiyalarini tuzish orqali o'quvchilarning har xil buyumlarga dekorativ naqshlar ishlash ko'nikmasini o'stirish; ularning estetik his-tuyg'usini yanada boyitish va idrok etish qobiliyatini rivojlantirish.

O'quvchilarni rangli qog'oz va matolardan tayyorlangan geometrik shakllar asosida naqshlar ishlash, qirqib-yopishtirish usulida ham turli naqshlar hosil qilish, o'simliksimon va geometrik shakllardan chiroyli naqshlar tuzish, ularni yelimlash ishlarini to'g'ri bajarishga o'rgatish.

O'quvchilarni o'zbek xalqining amaliy san'atida qo'llaniladigan naqsh usullaridan foydalanib, turli naqsh kompozitsiyalarini tuzish borasida egallangan malakalarini mustahkamlash. Ularni mustaqil naqsh ishlashga o'rgatish va estetik ruhda tarbiyalash lozim.

Badiiy qurish-yasash. O'quvchilarda qurish-yasashga doir ma'lum tushunchalar berish, ularni shu faoliyatga taalluqli materiallar qurish-yasash qoidolari bilan tanishtirish. O'quvchilarning qo'l va barmoqlarini o'zaro uyg'un harakatini ta'minlashga ijobiy ta'sir etish. O'quvchilarga tuzilishi jihatdan oddiy narsalar shaklini qurish-yasashni o'rgatish. O'quvchilarni yoshligidan qo'l mehnatiga o'rgatish. Qurish-yasash mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning piramida, uch va to'rt qirrali prizma, kub shakllarini tanish, katta-kichik, yo'g'on-ingichka, uzun-qisqa, baland-past kabi tushunchalarni hosil qilish orqali ularni qurish-yasashga bo'lgan havasini, qiziqishini, ijodiy tasavvurini, kuzatuvchanligini oshirish, turli tabiiy materiallar asosida murakkabroq ko'rinishli buyumlar yasay olish ko'nikmasini shakllantirish.

O'quvchilarni qurish-yasash ishlarida yelimlash, yopishtirish, o'qish, qismlarni o'zaro tutashtirish, qirqish kabi jihatlarini diqqat bilan kuzatish va o'z ishlarida unga amal qilishga odatlantirish.

Qurish-yasash mashg'ulotlarida har kanday ishni samarali tugatishga o'rgatish. Qurish-yasash mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning ongli, faol estetik hissiyoti, aql-idroki, yuksak badiiy madaniyatini tarbiyalash eng muhim masalalardan biridir.

1.2. Maxsus maktablarda tasviriyl san'at darslari asosida milliy kasb - hunarlarni qadrlashga o'rgatib borish

1-2 sinflardagi qo'l mehnati aqli zaif bolalarga kasb-mehnat ta'limi berishning propedevtiv (kirish) bo'g'ini hisoblanadi. Qo'l mehnati darslarining kasb-mehnat tayyorgarligi bilan bog'liqligini yordamchi maktab o'quvchilarida mehnat ta'limiga hozirlikni shakllantirishdan iborat.

Yordamchi maktab o'quvchilari dastlabki mehnat ko'nikmalari, bilim va malakalami hosil qiladilar. O'zlariga qulay bo'lgan turli materiallar bilan ishlash usullarini o'zlashtiradilar, ulauning xususiyatlari, asboblari bilan tanishadilar. Buyumlar tayyodashda ulaidan foydalanish mahoratini egallaydilar. To'g'ri ish holatini, o'zlarining ishga bo'lgan g'ayratlarini boshqaradilar.

Oligofrenopedagog qo'l mehnati darslarida doimo o'quvchilarga turli shakldagi mehnatga qiziqishni singdirib borishi lozim. Ta'limning yakunlovchi bosqichi bo'lgan uchinchi yilda endi muayyan ixtisoslarga qiziqish uyg'otish ishlarini kuchaytirish va bu bilan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini boshlash mumkin.

Keyinchalik o'quvchilar maktabda o'iganishi lozim bo'lgan barcha kasblarning muhimligi, zarurligini qulay va qiziqarli shaklda ochib berishi zarur. Ana shu maqsadda maktab ustaxonalariga, korxonalarga ishlab chiqarish ekskursiyalari uyushtirish tavsiya etiladi. O'quvchilar bu yerda ommaviy ishlab chiqarish ishlari, o'z ota-onalarining mehnati bilan dastlabki tarzda tanishadilar.

Aqli zaif bolalarga ta'lim berishning muvaffaqiyati o'quvchilarning o'zlariga taklif etiladigan mehnat topshiriqlarini o'zlashtirishga, olingan bilimlar asosida mashqlar bajarishga qanchalik tayyorligiga bog'liq bo'ladi. Bunday bolalar o'z psixologik rivojlanishlari xususiyati tufayli barcha ish bosqichlarini zarur darajada chuqur o'zlashtirmasligi mumkin. Yordamchi maktabning o'ziga xos xususiyati ta'limning kirish yo'nalishi yaqqol ifodalanishi bilan ajralib turadi, bunda har bir yangi bosqichdan oldin tayyorgarlik darajasi amalga oshiriladi.

Masalan, aqli zaif bolalar buyumni tayyorlashning butun jarayonini esda saqlab qololmasligi mumkin, shu sababli ish tushuntirib beriladi, ayrim usullar, operatsiyalar bo'yicha namoyish qilinadi, bundan maqsad bola butun ish jarayonini yaxlit va har bir detalini alohida tasavvur qila olsin.

Har bir usul alohida ko'rsatib va tushuntirib berilgandan so'ng bolalar dastlabki o'qituvchi kuzatuv ostida, keyin o'zlari mustaqil ravishda namunalar asosida tegishli mashqlar yo'li bilan ishlab chiqaradilar.

Yangi ish usullarini o'rganishda o'qituvchi endi o'rganilgan ish usullariga emas, balki bolalarning mavjud tajribasiga tayanadi. Ta'limning propedevtikligi oddiy operatsiyalardan murakkablariga, yengil usullaridan qiyinlariga sekin - asta o'tishni nazarda tutadi.

Tuzatish va yo'naltirish vazifasini hal qilishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi. O'quv-tarbiya jarayoni metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirdagina aqli zaif o'quvchilarning psixofizik rivojlanishidagi kamchiliklarni muvaffaqiyatli tuzatish mumkin. Defektolog o'qituvchi o'z fanini, o'z o'quvchilarini yaxshi bilishi, o'quv materialini, ta'lim metodlarini, ko'rgazmali qo'llanmalari, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan didaktik materialni sinchiklab tanlashi lozim. O'qituvchi o'quvchiga o'z shaxsi bilan ham ta'sir ko'rsatadi o'quvchiga o'z shaxsi bilan ham ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyalanuvchilarga hurmat bilan uyg'unlashtirib boriladigan talabchanlik, pedagoglik nazokati aqli zaif bolalarga ta'lim va tarbiya berishga alohida ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Shunday qilib, qo'l mehnati darslari o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga va ularni kasb-mehnat ta'limiga tayyorlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur metodik qo'llanmaning maqsadi qo'l mehnati darslarini iloji boricha namunali tashkil etishni ko'rsatib berishdan, uning yordamchi maktabning didaktik (korreksiyalash) tuzatuvchi - tarbiyalovchi vazifalariga ko'p darajada muvofiq bo'lishidan iboratdir.

Tuzatuvchi - tarbiyalovchi ta'lim tamoyili asosiy tamoyil bo'lib, yordamchi maktabning maxsus vazifalaridan, aqli zaif bolalarning patologik xususiyatlardan, «ularning yaqin oradagi rivojlanish zonalaridan» kelib chiqadi.

Tuzatish-tarbiyalash (korreksiyalash) ishlari ruhiy-jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni tugatishga yoki kamaytirishga qaratilgan, shuningdek, aqli zaif bolalarning «takroriy xususiyatlari»ning oldini olishga, ularda ijtimoiy-maishiy va mehnat ko'nikmalari uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Pedagogik tuzatishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri unga xos bo'lgan tarbiyalovchi vazifa bo'lib, u tuzatish-tarbiyalash ishlari terminida o'z ifodasini topgan. Bu holda aqli zaif bolalar har tomonlama tuzatiladi. Lekin diqqat markazida nuqsonning yetakchi belgisi, uning tegishli murakkabliklari bilan bog'liqligi turishi lozim.

Tuzatish-tarbiyalash (korreksiyalash) ishlari aqli zaif bolalarning xususiyatlarini ijobiy tomonga qarab uzluksiz rivojlantirib borishga qaratiladi. Bola odamlar bilan ijobiy aloqaga, muomalaga kirishuvi, buyumlar olamiga va atrof-muhitdagi voqealarga kirib borishi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, nutqi, xulq-atvori va shakllarini egallashi zarur.

Tuzatuvchi-tarbiyalovchi ta'lim tamoyili o'quv materialini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish orqali ta'lim va tarbiyani amalga oshirish talabida o'z ifodasini topadi.

O'qituvchi ta'lim mazmunini o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga tatbiqan tanlaydi va moslashtiradi. Bu hol bilim va amaliy harakatlar tuzilishini soddalashtirish, ularni tarkibiy qismlarga bo'lish va ularning har birini alohida o'rganish hisobiga sodir bo'ladi. Moslashtirish muayyan oraliqdagi propedevtik davrni joriy qilish bilan ham ta'minlanadi.

Oligofren bolalar bilish faoliyati asoslariga tuzatish kiritish va mustahkamlashga darsda ko'rgazmali-amaliy uslublardan hamda aqliy faoliyatdan foydalanish hisobiga erishiladi.

Aqli zaif bola aniq bir tafakkurga ega bo'lishi bilan ajralib turadi, shu sababli ularga ta'lim berish predmetli-ko'rgazmali asosda quriladi.

Yordamchi maktablar tajribasida ko'rsatish uslubi, tayyor bilimlarni yetkazish uslubi muhim o'rin tutadi. Oldiniga bu uslublar yetakchi bo'ladi, keyin ularning salmog'i kamayib boradi, chunki ular asosan mexanik xotirani rivojlantiradi, natijada o'quvchilarda passiv mushohada avj oladi, tafakkur rivoji pasayib, bilimlarni amalda tatbiq etish, ko'chirish malakasini hosil qilish barham topadi. Ta'limning ko'rgazmali va amaliy uslublaridan foydalanishda o'quvchilarning amaliy harakatlarini kuzatishga rahbarlik qilish, perspektiv va amaliy harakatlarni nutq bilan maqbul tarzda boglash alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir darsda uning tuzatuvchi-tarbiyalovchi maqsadlarini aniq belgilab olish zarur. Bu maqsadlarsiz mashg'ulot yuzaki tus oladi. Uning o'ziga xos xususiyati yo'qoladi, umumta'lim maktabi uchun xarakterli bo'lgan didaktik talablarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishga olib keladi. Bu hol maxsus ta'limning asosiy vazifalari va tamoyillariga zid keladi.

O'quv jarayonidagi tuzatuvchi-rivojlantiruvchi maqsadlar qanchalik samarali amalga oshirilsa, ta'lim beruvchi maqsadlar ham shunchalik natijali bo'ladi. Shunga erishish muhimki, o'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarishga faol intilsinlar, o'qituvchi esa dars maqsadini aniqlab, butun kuch-g'ayratini ana shu maqsadlarga erishish yo'llari va vositalarini izlashga sarflasin.

Yordamchi maktabning o'quv jarayonini tashkil etish sifatini, tuzatish yo'nalishini yaxshilash uchun rus defektologlari — G. M. Dulnev, I.G.Yeremenko, X.S.Zamskiy, S.D.Zabramnaya, N.P.Pavlova, M.N.Perova va boshqalar quyidagi shart-sharoitlarni tavsiya qiladilar:

- o'quv jarayonining barcha bosqichlarida maktab o'quvchilari aqliy harakatlarini tashkil etish. O'quvchilarning aqliy operatsiyalarini bajarishi (moijal olish — tadqiqot, tahlil qilish, umumlashtirish, qiyoslash, nazorat qilish, rejalashtirish, baho berish operatsiyalari);

- tasavvur, tushunchalarni tarkib toptirish jarayonida bolalarni buyumlarning o'ziga xos, muhim belgilarni qismlarga ajratishga o'rgatish;

- nutq faoliyatiga, nutqni nazorat qilishga undash;
- idrok etiladigan buyum va uning soʻz bilan ifodalanishi va amaliy harakatlar oʻrtasida mustahkam oʻzaro bogʻliqlik oʻrnatish;
- taʼlimning sekinlatilgan surʼati (aqli zaif bolalarda asabiy-ruhiy jarayonlarning kechishiga muvofiq ravishda);
- materialni koʻp marta bir-biriga oʻxshatib takrorlash;
- idrok etish obʼektni koʻp marta koʻrsatishga asoslanishi lozim;
- bolaning hissiy tajribasini yuqori darajada jalb qilish, saqlash analizatorlaridan har tomonlama foydalanish;
- oʻquvchilarni buyum bilan bogʻliq boʻlgan amaliy faoliyatga jalb qilish;
- yaxlit faoliyatni ayrim tarkibiy qismlarga, elementlarga, operatsiyalarga boʻlish, ularni ichki jihatdan bir-biriga bogʻliq ravishda idrok etish (aqli zaif bolalar global idrok etish bilan cheklanadilar);
- oʻquvchilarning harakatlarini doimiy ravishda tuzatib borish. Buning uchun har bir oʻquvchining oʻquv faoliyati oʻqituvchi tomonidan muntazam tahlil qilib boriladi, bundan maqsad vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish, yordam koʻrsatishdir;
- oʻquvchining eng rivojlangan sifatlariga tayanish;
- taʼlimning propedivtikligi(kirish taʼlimi); kirish kursi taʼlimga asos boʻladigan bilimlar boshlangʻich minimumini yaratadi;
- keng koʻlamli ishni aqli zaif bolalarga tabaqalashgan holda va alohida yondashishni birga qoʻshib olib borish. Oʻquv faoliyatiga tabaqalashgan holda rahbarlik qilish;
- bilish jarayonlarini va aniq maqsadga qaratilgan faoliyatini rivojlantirish maqsadida xilma-xil usullar va uslublarni ishga solish.

Oʻqituvchining doimiy vazifasi oʻquvchilarda mustaqillik, faollik, kuzatuvchanlik, diqqatni, oʻrganilayotgan buyum va hodisalarga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradigan uslublar va usullarni tanlashdan iborat.

Bu uslublar va usullar buyumlar bilan amaliy ish olib borish, turli obyektlarni aniq maqsadni ko'zlab kuzatish, amaliy o'yinlar, vaziyat, harakatlar algoritmini yaratish, ekskursiyalar, laboratoriya mashg'ulotlari, kitoblar bilan ishlash, mashqlar, ko'rgazmali namunalar ishlashdir.

Har bir darsda mehnatning ijtimoiy ahamiyatini, uning amaliy yo'nalishini ta'kidlash muhimdir. Bu - tayyorlanayotgan buyum uchun mas'uliyatni tarbiyalaydi. Agar o'quvchi aqli zaif bolalarning jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarini hisobga oluvchi va qo'l barmoqlarining tabaqalashgan harakati rivojlanishiga qaratilgan maxsus ishlar olib borsa, tuzatish ishining samaradorligi ortadi. Aqli zaif bolalarning ruhiy xususiyatlari, ularning haddan tashqari charchab qolishi, saqlovchi tormozlanishi tezligi, jismoniy zaiflashuvdan kelib chiqib, yordamchi maktab o'quvchisi darsida zarur ish sur'ati va me'yorini ta'minlashi o'quv materiali, topshiriqlarni to'g'ri dozalanishiga, barcha faoliyat turlarining navbatma-navbat kelishi va qiyinchilik tug'dirmasligiga, me'yor buzilganda esa amaliy muvozanatning tiklanishiga e'tibor berishi, rag'batlantiruvchi vositalar va usullardan foydalanish kerak.

Darsning birinchi bosqichi bo'lgan tashkiliy jihatga katta e'tibor berish kerak bo'ladi, u o'quvchilarning faoliyatsizligini barham toptirishga, mazkur darsga aloqador bo'lmasa ham qo'shimcha hayajonlanish manbai bo'ladigan ta'sirlardan xoli bo'lishga qaratiladi. Dastlabki daqiqalardan boshlab idrok etiladigan materialga ijobiy munosabatni vujudga keltirish zarur.

Yordamchi maktab uchun mehnat sur'ati — bu intizom muammosidir. Sur'at zaif bo'lsa, o'quvchilarda boshqa mashg'ulotlar uchun qo'shimcha vaqt qoladi. Sur'at ancha yuqori bo'lganida esa o'quvchilar o'qituvchining tushuntirishlarini ilg'ab olmaydilar va zo'riqishga tob berolmay, saqlovchi tormozlanish holatiga tushib qoladilar. Eng maqbul sur'at amaliyot jarayonida ma'lum bo'ladi.

Ish me'yori ham juda muhimdir. Me'yorning har qanday buzilishi, zo'r berib qilinayotgan ishning keskin susayib ketishi va hatto bo'sh turib qolishlari bilan asossiz ravishda almashinishi bolalarning mehnat harakatini izdan chiqaradi, eng samarali, ravon va tekis ishga nisbatan ko'proq charchatib qo'yadi.

Qiyin ish turlari bilan oson ish turlarini, mehnat bilan dam olishni almashtirib turish, bolalarning diqqatini uzoq vaqt bitta predmetga qaratishga o'rgatish kerak. Bunga darsdagi mashg'ulotlar turini o'zgartirish, jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazish bilan erishiladi.

Qo'l bilan qilinadigan buyumli faoliyat bola uchun ancha aniq va tushunarli bo'lib, aqli zaif bolalarning ta'lim jarayoniga kirishuvi uchun boshlang'ich faoliyat hisoblanadi. Umumta'lim fanlari bilan qo'l mehnati darslari o'rtasida mustahkam o'zaro aloqa bo'lishi lozim. O'qish anomal bola uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, uning bilimlari puxta, hayotiy, o'zi ishga yaroqli bo'lib boradi.

Yuqori malakali ishchilarning ish faoliyatlarini psixologik tahlili, yuqorida aytib o'tilgan aqliy harakatlar ishchiga yuqori darajada mustaqillik ta'minlanishini ko'rsatdi. V.V.Chebishev va B.F.Lomovlarning ta'kidlashlaricha, malakali ishchilarning ish jarayonlari doimo o'zlarini nazorat qilish holatlari bilan almashib turadi. Shu bilan birga, yuqori malakali ishchilarda barcha ish jarayonlari avtomatlashgan harakatlardan iborat bo'ladi. Nuqsonli bolalarda esa, asosan mana shu avtomatlashgan harakatlarni yuzaga keltirish ancha qiyin amalga oshiriladi. Yuqori malakali ishchi har bir ish qurolining turar joyi, vazifasini yoddan tasavvur etib turadi. Bu xislat uning maksimal darajada vaqtdan unumli foydalanishiga yordam beradi. Uzoq

yillik kuzatishlardan ma'lumki, hatto yuqori sinf o'quvchilarida ham yetarli mustaqillik shakllanmaydi. Yuqori sinf o'quvchilarining atigi 20 foizigina u yoki bu darajada ishni mustaqil hal qila oladi. Yordamchi maktab o'quvchilarining asosiy qismi o'qituvchidan yordam olishga muhtojlik sezadi. Yuqori sinflarning ham aqli zaif bolalari mehnatga oid ko'nikma, malakalar yetarli shakllangan bo'lsa ham, ish jarayonida qiynaladilar. Bu qiyinchiliklar asosan ish vaqtida fikrlash jarayonlari talab etilganda yuzaga kelar ekan. Bu, asosan, ishni rejalashtirishda, nazorat qilishda ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bajarayotgan ish jarayonini mustaqil gapirib bera olmaydilar. Bu xususiyatlar V.I.Lubovskiy va N.I. Nepomnyashaya ishlarida to'la ochib berilgan.

A.R.Luriyaning ko'rsatishicha, «Asosiy asab jarayonlari (ayniqsa tormozlanish)ning tonusi susayganligi bilan ajralib turadi. Asab jarayonlari juda sekin bir joyga to'planadi, arziyas tashqi taassurotlar bu jarayonlarni tormozlab qo'yishi mumkin». Ko'pchilik aqli zaif bolalarning nutqi bilan harakatlari orasida bog'liqlik bo'lmaydi. Agar normal bolalar biror ishni oldindan rejalab, ish jarayonini gapirib, so'ng ish boshlasalar, aqli zaif bolalar ishni to'g'ridan-to'g'ri boshlab yuboradilar. Bu o'z navbatida ish jarayonida qator kamchiliklarga olib keladi. Hatto yuqori sinf o'quvchilari ham ba'zan qilgan ishlarini og'zaki gapirib bera olmaydilar. Shu bilan birga, aqli zaif bolalar yasagan narsalarini namuna bilan taqqoslolmaydilar.

V.I.Karvyalis tadqiqotlaridan ma'lumki, 1-2 sinf o'quvchilarining 90 foizi ish natijalarini namuna bilan taqqoslamas ekanlar, qator aqli zaif bolalar o'zlarining yasagan dag'al, qo'pol, beso'naqay narsalarini namunaga to'g'ri keladi deb tushunadilar. Ulardagi bu xislat shaxsiy sifatning yetarli shakllanmaganligini ko'rsatadi. O'zlariga tanqidiy qarashning yo'qligi asosida bu kamchilik yuz beradi. Aqli zaif bolalarda o'ichov birliklari haqidagi tasavvur va bilimlar ham cheklanganligi ish jarayonlarida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. I.N.Manjuloning ta'kidlashicha, 70 foiz aqli zaif bola o'lchov ishlarida xatolikka yo'l qo'yadi. Atigi 5 foizgina bolalar o'lchov ishlarini to'g'ri bajarganlar. O'quvchilardagi mm, sm, m kabi uzunlik o'lchov birliklari noto'g'ri shakllanganligi oqibatida, ko'z bilan chamalab o'lchashlari ham xatoliklardan xoli bo'lmaydi. Bu taxlitdagi xatoliklar burchaklarni o'lchashda ham ko'zga tashlanadi.

Yordamchi maktab o'quvchilari mehnat qila turib ham aqlan, ham jismonan, ham shaxsan takomillashib boradi. Albatta, bu takomillashish, rivojlanish normal bolalar darajasida bo'lmaydi. Chunki normal bolalar ongli, tushungan holda bajarib borsalar, aqli zaif bolalarning aksariyati ishni mexanik tarzda, tushunmasdan bajaradilar. Shuning oqibatida ish natijalarida ham keskin farqlar yuzaga keladi Normal bolalar aqliy jihatdan birmuncha tez rivojlanadilar, chunki ular insoniyatning umumlashgan tajribalarini o'zlashtirib boradilar deb e'tirof etadi A.N.Leontev. Aqli zaif bolalar esa bu tajribalarni yetarli egallay olmaydilar.

Aqli zaif bolalarning mehnat faoliyatida qator kamchiliklar borligini ta'kidlash bilan birga, shuni e'tirof etish lozimki, ularning asosiy qismida turli darajadagi harakat buzilishlari mavjud. Aqli zaif bolalarning ish jarayonidagi kamchiliklar asosida mana shu harakat nuqsonlari ham ma'lum rol o'ynaydi. Oligofrenopedagogika tarixida shifokor, pedagog, psixologlardan J.Demor, M.O.Gurevich, N.I.Ozereskiy, S. Ya.Rabinovich, A.N.Graborov, A.Gezell, G.Ya.Troshin, G.E.Suxareva, S.S.Lyapidevskiy, L.V.Zankov, respublikamizda B.F.Shoumarov, Q.Mamedov va boshqalar nuqsonli bolalarda harakat sistemalarining turli tomonlarini batafsil ochib berganlar. Yordamchi maktab mehnat ta'limining asosiy vazifalaridan biri aqli zaif bolalarning turli harakat nuqsonlarini ham tuzatishdan iborat. Mehnat ta'limi jarayonlarida faqatgina bilish jarayonlari rivojlanib, to'g'rilanib, tuzalib qolmasdan, balki ularning hissiyot-irodalariga ham samarali ta'sir etilar ekan.

Oligofrenopedagogika fanining rivojida mehnatga oid turli fikrlar bo'lishiga qaramay, ularning barchasi ijobiy shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga yordam berishi qayd etib o'tilgan.

Aqli zaif bolalar o'zlarining o'yin, o'qish, mehnat faoliyatlarida yaxshi yoki yomon fikrlashlari bilan birga, barcha faoliyat natijalariga ijobiy, salbiy munosabat bildiradi. Mana shu munosabat asosida sekin- asta shaxsiy sifatlar shakllanib boradi. Shaxsiy, hissiy-irodaviy sifatlar fikrlash jarayonlariga juda katta samarali ta'sir etadi. Psixik faoliyatning barcha faol shakllari (ixtiyoriy diqqat, eslab qolish, harakatlarning maqsadga muvofiqligi) bolaning uzoq muddatli faol faoliyati samarasi hisoblanadi. O'z vaqtida E.Segen ham aqli zaif bolalarda asosiy nuqson irodaning buzilganligidir, deb ko'rsatgan edi. V.Shtroymayer esa, bu bolalarda ixtiyoriy diqqatning yetishmasligini ta'kidlaydi. G.Ya.Troshin esa aqli qoloqlarda yetakchi belgi, bu bolalarning ish jarayonida mumkin qadar yengil yo'l tanlashlarini ko'rsatadi. Bularning barchasi o'zicha haqlidir.

M.S.Pevzner aqliy nuqson — oligofreniyani tahlil etar ekan, asosiy nuqson — ish qobiliyati va maqsadga muvofiq harakatlarning yetishmasligidir, deb ta'kidlaydi.

Yorodamchi maktabda mehnat ta'limi asosan ikki bosqichdan iborat:

1. Tayyorgarlik bosqichi (I—IV sinflar);
2. Kasb-hunar mehnati (V—IX sinflar).

Tayyorgarlik bosqichida asosan qo'l mehnati mashg'ulotlari olib boriladi.

Kasb-hunar bosqichida esa kasb-hunar mehnati turlari beriladi. Bu mehnat yordamchi maktabni bitirguncha davom etadi. Aqli zaif bolalar ma'lum mutaxassislikni egallaydilar. Bolalar 8 yillik maxsus ta'lim davomida tugallangan kasb tayyorgarligini olishlari kerak.

Kasb-hunar mehnatida ishlab chiqarish amaliyotining o'rni juda katta. Bu amaliyot ma'lum ishlab chiqarish korxonalarida o'tkaziladi.

O'quvchilarga bosma harflarni yozishga o'rgatishda qadar daftar yozib malaka hosil qilinadi. So'ngra alohia qog'ozga faqat chiziq orasida yozishga o'tiladi. Harf yozishda malaka hosil qilingandan so'ng plakat pero bilan, masalan: kitob bizning do'stimiz gapini yozishga o'tiladi. Avval har bir so'z harfdan yozilgan aniqlanadi. "Kitob" so'zi 5 ta harfdan, "bizning" so'zi 7 ta, "do'stimiz" so'zi 8 ta harfdan tuzilgan. Harf oralarida bir katakdan joy qoldiramiz. Shuni hisobga olib birinchi so'zga 19 ta, 2-so'zga 26 ta, 3-so'zga 33 ta katak olinadi. So'zlar orasida 2 katakdan joy qoldiramiz. So'zlarni markazdan 2 tomonga barobar joylashtiramiz.

Devoriy gazetani bezaganda bo'limlar va sarlavhalarga alohida ahamiyat beriladi. Devoriy gazetada rasm ham katta rol o'ynaydi. Shuning uchun devoriy gazetadagi rasmlar yaxshi ishlanishi hamda gazetaning mazmuniga muvofiq bo'lishiga e'tibor berilishi kerak. Devoriy gazeta ramlari 2-3 xil rang bilan ishlanishi lozim. Devoriy gazetani bezashda va yozishda quyidagilarga e'tibor berilishi lozim.

1. Gazeta nomi.
2. Bo'limlar sarlavhasi.
3. Maqolalar uchun ayrim sarlavha va rasmlar.
4. Kansovkalar.
5. Turli karikaturalar.

Gazetaning bayram va uchrashuv kechalariga bag'ishlangan sonlarida bayram va uchrashuv haqida shoira va xarakterli sarlavhalar ishlanadi.

Kansovkalar maqola mazmuniga qarab, oxirigi ishlanadigan rasmlardir. Kansovka o'rniga chiroyli geometrik to'g'ri chiziqlar tortilsa ham bo'ladi.

Grafik ishlarni bajarishda harflarning roli katta. Harflar turli xil chiziqlar birlashmasidan tashkil topgan bo'lib, bu chiziqlar harf elementlaridir. Harfni yozishda pastga tushuvchi chiziqni harfning asosiy chizihi pastdan yuqoriga chiquvchi chiziqni esa birlashtiruvchi chiziq deb ataladi.

Rang tasvir: Devorlarga ishlangan turli rasmlar solotnolarga chizilgan sur'at kino va teatr dekorasiyalari shu san'at turiga kiradi. Rang tasvirda rang muhim o'rinni egallaydi. Rang tasvir asarlari o'zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko'ra manumental, dastgoh, dekorativ turlarga bo'linadi.

Manumental me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmunga ega, ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqyealar aks ettiriladi.

Dastgoh hozirgi zamon tasviriy san'atda yetakchi o'rinni egallaydi. Odatda u maxsus raqamga tortilgan matolar ustiga ishlanadi. Bunday rassomchilik asarlari jamiyatda bo'layotgan muhim voqyea va hodisalarni aks ettirishlantirishlari shaxsning individual xislatlarni, his-tuyg'ularini to'liq ko'rsatish imkoniyatiga egadir.

Dekorativ me'morchilik va amaliy san'at bilan bog'liq, asosan bezash vazifasini o'taydi. Dekorativ r-r ga naqqoshlik san'ati, teatr, kino, dekorasiyalari kiradi. Dekorativ r-r Manumental r-r singari to'g'ridan-to'g'ri devorga ishlanishi nano, mozanka tarzida bo'lishi mumkin.

Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan xaykaltaroshlik asarlaridan borliq hajmga ega bo'lgan shakllar orqali makona tasvirlanadi. Haykallar odatda dumaloq va qabariq ko'rinishda bo'ladilar.

Haykaltaroshlik asarlari uchun turli xildagi materiallar ishlatiladi. Masalan: tosh-grantda ishlangan haykallar kishida ulug'vorlik, adabiylik baxsh etsa marmarda ishlangan haykallar nozik ko'rinadi. Yana haykallar loy, yog'och, metall, marmar, grant, suyak, dement, gips va boshqalar.

Haykaltaroshlik deyarli rang ishlatilmaydi.

Turlari:

Manumental haykaltaroshlikka-muhim tarixiy voqyealar, atoqli shaxslarga qo'yilgan haykallar kiradi.

Dekorativ haykaltaroshlik – istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va parklar, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladi.

Dastgoh haykaltaroshligiga – o'zida mustaqil mazmunli anglatadigan san'atning bosh turlariga tobe bo'lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalarga qo'yish ularga qo'yish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

II.BOB. MAXSUS MAKTABLARDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KORREKSION ISHLAR TASHKIL ETISH

2.1. Maxsus maktablarda tasviriy san'at darslari orqali bolalar estetik didini tarkib toptirish

Maxsus maktablarida tasviriy faoliyat mustaqilliylik, qa'tiylik xislari ham rivojlanadi. Aqli zaif o'quvchilarni tasviriy faoliyatda ijobiy (samarali) natijalarga erishish uchun pedagogika-psixologik sharoit yaratilishi lozim.

Bolalarni tasviriy faoliyatda bir qator estetik asarlarni idrok etishlarini rivojlantirish muhimdir. Idrok etish predmetni analiz va sintez qilishni talab etadi. Bularni bolalar mustaqil o'zlashtira olmaydilar.

Idrok etish bosqichlarini tashkil qilish:

- predmetni yaxlitligicha idrok etish
- analez qilib ko'rib chiqish
- predmetni tuzilishini, yirik va mayda qismlarini o'zaro munosabatlarini aniqlash.

- Rangini ajratib ko'rsatish:

- Predmetni yana yaxlitligicha ko'rib chiqish.

Estetik tarbiya-bu bolalarni voqyealikdagi, sa'natdagi, tabiatdagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikka munosabatini idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Insonda go'zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi balki u jamiyat va odamlar, atrof muhit ta'sirida shakllana boradi.

Shunga ko'ra, insoniyatning badiiy rivojlanish qonuniyatlar ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog'langan. Estetik tarbiya eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Shaxsning barkamol bo'lib shakllanishida, analez bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib ayganda, hissiy vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir.

Estetik, ya'ni go'zallik tarbiyasini singdirishning ahamiyati katta. Bunday tarbiya, avval yoshlarni turmushdagi go'zallik va xunlikni tushunish, his etish orqali ma'lum bir kayfiyatni shakllantiradi, ularda go'zallikda bajara olishni shakllantiradi.

Estetik his tuyg'u, estetik madaniyatni shakllantirishdir. Estetik tarbiya shunday katta kuyaga egaki, san'at asaridagi tasvirlangan syujet, xodisa bolaning, idrok etuvchining tasavvurida hayolida, kechinmalarida, estetik hissi yotida, qayt ishlanib uning o'z tajribasiga aylanma, yangi hissiyotlarni yangi insoniy munosabatlarni vujudga keltiradi. Bolalar rasm chizish jarayonida estetik, aqliy-xissiy va madaniy-ma'naviy rivojlanishida katta o'zgarishlar yuz beradi.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida estetik tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning aniq vazifalar mavjud, bolalarni zehnli, estetik his rassomchilik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy malakalarini rivojlantirishdir.

Estetik tarbiyaning birinchi vazifasi shundan iboratki va zaif eshituvchi bolalarni zehnli, go'zallikni ko'ra bilishi va tushunishi, xursandchilikni his qila bilishi kerak. Tekshirishda shuni ko'rsatadiki kar va zaif eshituvchi bolalar eshituvchi bolalar kabi, maktabgacha davrdanoq yorqin chiroyli o'yinchoqlarga, rasmlarga intiladilar.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqi lug'ati kambag'alligi tufayli, idrok qilishlari quyinishadi.

Estetik tarbiyaning ikkinchi vazifasi-estetik did, estetik baho bera olishni o'rgatishdir, bu vazifada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni asosan nutqi va fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Bolalar og'zaki nutq asosida o'z fikrlarini bayon qila olishlari kerak. Lug'atlari sust tushunarsiz, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning nutqi korreksiyalanadi. Didaktik harakatli syujetli o'yinlarda ham bolalarning nutqi rivojlantiriladi.

Estetik tarbiyaning uchinchi vazifasi bolalarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdir. Maktabgacha tarbiya muassasasida har xil qobiliyatga ega bo'lgan bolalar uchraydi.

Ayrim bolalar chiroyli chizadilar, ayrimlarni qanchalik erta san'atning biror bir turiga qiziqтира olsak, bolaning estetik tarbiyasi, idroki rivojlanadi. ENB bolalar tasviriy faoliyat jarayonida ularni rasm chizishga qiziqtirish va ularning ijod bilan shug'ullanishlari quyidagi samarasini beradi.

San'atning rasm chizish turi bilan shug'ullanish bolalarni atrof – olamga, insoning ijtimoiy hayotiga, o'smirlar va hayvonot olamiga qizishini kuchaytiradi, ular atrofdagi narsalarni diqqat bilan kuzatishni o'rgatadilar.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni estetik sezgisini, tuyg'usini va estetik tarbiyasini yuqori darajali sur'atlar, portretlar, milliy o'yinchoqlar, milliy naqshlar va boshqa san'at turlari bilan tanishtirmasdan shakllantirish mumkin emas.

Yuqori darajali rasmlarni qiziqish va diqqat bilan kuzatganlaridagina bolalar rasm chizish san'atga qiziqish uyg'onadi, rasmlarga bo'lgan munosabatlari shakllanadi. Bolalar o'zlari chizgan rasmlariga ranglardan to'g'ri foydalan olishga o'rganadilar, o'quvchilar bir-birlarining chizgan rasmlariga baho berishlari kerak. Tasviriy faoliyatda o'quvchilarning Vatanga bo'lgan muhabbatini va milliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirilib rivojlantiriladi.

Tasviriy faoliyat darslarida o'quvchilarni boshqa insonlar tomonidan chizilgan rasmlarga xurmat bilan munosabatda bo'lishga, muomila madaniyatiga xurmat o'rgatilib boriladi.

Estetik tarbiya yordamchi maktabda o'quvchilar shaxsini to'g'ri kamol toptirishga kompleks yondashuvni ta'minlaydi, u milliy, g'oyaviy, mehnat va axloqiy tarbiyani qamrab oladi hamda mehnatga, atrofdagi kishilar turmush tarziga to'g'ri munosabatda namoyon bo'luvchi faol nuqtai nazarga ega bo'lgan har tomonlama uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalab yetishtirishga yordam beradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan maxsus maktab islohoti maktab o'quvchilariga badiiy- estetik tarbiya berishni yaxshilash, go'zallikni his qilishni rivojlantirish, yuksak estetik didni, san'at asarlari, tarix, me'morchilik yodgorliklari, jonajon tabiat go'zalligi, boyligini tushunish hamda qadrlay bilishni shakllantirish lozim.

Yordamchi maktab o'quvchilarini estetik rivojlantirish — bu aqli zaif o'quvchilar shaxsining estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyati vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat. Estetik tarbiya uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon yordamchi maktab o'quvchilarining yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalariga egadir. Bu esa, yordamchi maktab o'quvchilari shaxsini, jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog'liq bo'lib, turli yoilar hamda shakllar yordamida amalga oshiriladi. Yordamchi maktabda estetik tarbiyaga doir bilim va malakalar asosan dars jarayonida — o'qish, musiqa, ona tili, tabiat, tasviriy san'at, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya darslarida beriladi.

Estetik tarbiyaning vazifalari juda keng va rang-barangdir. Shu vazifalardan biri yosh avlodda estetik sezgi va estetik idrokni tarbiyalashdan iborat. Hayotda, san'atda go'zallikni ko'ra bilish va sezish har bir kishining ham qo'lidan kelavermaydi. Bir kishi quyosh botishidagi ranglardan ko'z uzolmasa, ikkinchi bir kishi bu holatga befarq bo'lishi mumkin. Estetik sezgirlik, idrok, diqqat-e'tibor estetik tarbiya asosini tashkil etadi. Bu vazifa bolaning bevosita borliqdagi go'zalliklarni sezishi jarayonida bajariladi. Bolalardagi estetik sezgi madaniyati maxsus musiqa, rasm mashg'ulotlarida rivojlantirib boriladi. Estetik tarbiyaning ikkinchi vazifasi bolalarda estetik tushuncha, baholash hissini shakllantirishdir. Bola go'zallikni faqatgina sezishi emas, balki uni tushunishi, u haqda fikr yuritishi zarur. Bunga bilimlarsiz erishib bo'lmaydi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari davomida bolalar shakl, rang, yorug'lik, zulmatning roli haqidagi bilimlarni egallagan bo'lishlari darkor. Ulardan musiqa va ashulada tovushni farqlay bilish ham talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar badiiy so'zning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi bilimlardan ham xabardor bo'lishi kerak.

Badiiy didni tarbiyalash ham estetik tarbiya vazifalaridan biridir. **Estetik did** — bu go'zallikni sezish, go'zallikka hissiy munosabat, estetik sezgilar madaniyati, estetik baho bera olish, go'zallikning obyektiv mezonlarini tushunish bilan chambarchas bog'liqdir. San'at asarlari namunalarini baholash darajasi badiiy did ko'rsatkichlaridan biridir.

Shu asosda muayyan shaxsning didi haqida fikr yuritish mumkin.

Badiiy didning ikkinchi ko'rsatkichi: go'zallikka baho berish, me'yorida tanlash masalasida, haqiqiy go'zallikni soxta go'zallikdan ajrata olishda ko'zga tashlanadi.

Badiiy didning uchinchi ko'rsatkichi: san'at asarlarida yuksak talabda, soxtalikka qarshi kurashda, tasvirlardagi obrazlarni chuqur ko'ra bilishda namoyon bo'ladi. Estetik did atrofimizdagi narsalarning, tabiatning, mehnat mahsulotlarining, kishilar munosabatining, haqiqiy san'at namunalarining ta'siri ostida rivojlanib boradi. Estetik did go'zallikni tushunib idrok etishda go'zallikka oid ongli munosabat ham shakllanib boradi.

Tabiatning nozik holatlarini, ko'rinishlarni his qila olish uchun insonda ma'lum darajada hissiyot rivojlangan bo'lishi kerak. Aks holda inson bunday go'zalliklarga befarq qaraydi, kishilarda estetik faollikni rivojlantirmasdan turib haqiqiy estetik tarbiyaning vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. Estetik faollik insonning tarbiyalanganlik belgisidir. Bu faollik estetik idrokning tezligida namoyon bo'ladi. Bolalarda estetik faollikni tarbiyalashda har bir bolada sezgirlikni, nozik tabiatlikni shakllantirib borishimiz kerak. Estetik faollik estetik sezgirlik bilangina cheklanib qolmasdan, balki kishining hayotiga go'zallik olib kirishi hamdir. Shaxsning boshqa xislatlari kabi estetik madaniyati va estetik didi faoliyatda rivojlanib boradi. Agar bolaning butun hayoti: mehnati, o'qishi, dam olishi estetik ma'no bilan yo'g'rilgan bo'lsa, u o'z hayotiga go'zallik elementlarini olib kiradi. Oilada va maktabda bolalar bunday ko'nikma va malakalarni egallab boradilar.

Ota-onalar bolalariga uyni yig'ishtirish, bichish-tikish ishlarini o'rgatib boradilar. Maktabda o'quvchilar devoriy gazetalar chiqaradilar, ularni bezaydilar, bayramlarga albomlar ishlaydilar, stendlar tayyorlaydilar, badiiy kechalar uyushtiradilar, yaxshi ashulachi, o'yinchi ko'riklarida qatnashadilar. Turli o'yinchoqlar yasaydilar. Bevosita shunday estetik yo'nalgan faoliyat turlarida estetik faollik rivojlanib boradi. Tarbiyachilar har bir bolaning yasagan narsalarini diqqat, e'tibor bilan ko'zdan kechirishlari kerak.

Estetik tarbiyaning zaruriy vazifalaridan yana biri bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdir. Inson — go'zallik ijodkori bo'lganligi sababli maktab o'z o'quvchilarini mana shunga tayyorlashi lozim. Maktablarda o'quvchilarning estetik imkoniyat va qobiliyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarish kerak. Musiqiy ijod musiqani tushunish, eshitish bilan uzviy bog'liq. Bimisoli gimnastik mashqlar tanani to'g'rilaganidek, musiqa ham qalbni ardoqlashini, musiqiy tarbiyasiz bolaning yetuk aqliy rivojlanishi mumkin emasligini unutmasligimiz kerak.

Ko'rsatib o'tilgan estetik tarbiya vazifalari bir-birlari bilan o'zaro bog'liq va bir-birlariga bog'lanib ketadi. Estetik tarbiyani atroflicha amalga oshirish uchun insonlar orasidagi munosabatlarda ham estetik talablarga rioya qilish kerak. Kiyinish ham, xatti-harakatlar, mimika ham ma'lum estetik didga bog'liq. Shular orqali shaxsni tarbiyalab borish mumkin. Ota-onalar, o'qituvchilar bolalarda estetik madaniyatni tarbiyalashga e'tibor berishlari kerak. Tabiat go'zallik manbaidir. Agar oila, maktab bolalarni shu go'zallikni sezishga tayyorlasa, albatta o'quvchi bu go'zallikka befarq qaramaydi. Tabiat estetik sezgi, xayolning rivojlanishi uchun boy material beradi. Tabiat manzaralari insonning estetik kechinmalarida, xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi.

O'quvchilarda estetik idrokni rivojlantirish uchun o'qituvchi turli vosita, usullardan foydalanishi zarur.

Maktablarda bolalarning ish mahsulotlariga estetik mezon kiritish lozim. «Kim chiroyli yasadi?», «Nima uchun uning qo'g'irchog'i chiroyli?», «Qanday yaxshi qilish mumkin?» kabi savollar berish o'rinli. Maxsus maktablarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda san'atning roli yildan-yilga ortib bormoqda. Adabiyot, ashula, rasm darslari bolalarda badiiy didni tarbiyalashga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot estetik tarbiyaning zaruriy manbaidir. Badiiy asarlar o'qish orqali estetik did tarbiyalanib boriladi. Tasviriy san'at ham estetik tarbiyada katta imkoniyatlarga ega. Maktablardagi estetik tarbiyaga oid suhbatlar, ma'ruzalar ham yaxshi natija beradi. Musiqa va ashula bolalar hayotiga kirib borar ekan, ularning hissiy tajribalari ortib boradi.

Yordamchi maktab o'quvchilari maktabni tugatgach, ishlab chiqarish korxonalariga yo'llanma oladilar. Shu sababli bu bolalarning ish joyini, ishlab chiqarayotgan mahsulotga estetik did bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashimiz kerak. Mehnat estetikasi mehnat tarbiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Estetik idrok qilish faqat xursand bo'lish, yaxshi kayfiyat emas, balki xursand bo'lib yig'lash ham, qoyil qolish, hayratlanish, nafratlanish ham mumkin.

Muhimi shundaki, kishi to'lqinlanadi, hayajonlanadi. Aqli zaif bolalar o'zlarining intellektual va hissiy nuqsonlari oqibatida go'zallikni yuzaki idrok etadilar. Tuzatish — tarbiyaviy ishlar oqibatida ularda sezgi xususiyatlari o'zgarib, rivojlanib boradi (K.X.Mamedov). O'quv materiallarining ko'rgazmaliligi, aniqliligi ma'lum estetik qiymatga ega. Bolalarning yoshiga, individual xususiyatlariga, kasallik xarakteriga mos keluvchi ko'rsatmalar, suratlar, xalq hunarmandlari asarlarini namoyish etish mumkin. O'quv dasturida 4—6-sinflarda tasviriyy san'at asarlari ustida suhbat uyushtirish berilgan. Aqli zaif bolalarda estetik tarbiya nihoyatda sekin amalga oshadi. Hatto yordamchi maktab birinchi sinfiga kelgan bolalar tevarak-atrofidagi narsalardan muayyan rangni, tovushlarni ajrata olmaydi. Bola sezgi organlari sog' bo'lsa- da, uning funksiyalari to'g'ri kechmaydi. Bola quloq soladi-yu, lekin eshitmaydi, qaraydi-yu, ammo ko'rmaydi. Bu bolalar bilish faoliyatlarining cheklanganligi oqibatida estetik idrok etishlari ham sekin kechadi. Shu sababli yordamchi maktab ta'limining birinchi kunidan boshlab estetik didni rivojlantirish, idrok etilganlarni tahlil qilish, taqqoslash malakalarini rivojlantirish talab etiladi. Yordamchi maktabda bolani o'rab turgan barcha narsalar estetik did bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Maktab, sinf, guruh xonasi, oshxona, ustaxona, bola qayerda bo'lmasin, o'sha joylar bolani estetik tarbiyalashi lozim. Hatto xonalardagi ranglar ham estetik talablar asosida tanlangan bo'lishi darkor. Yordamchi maktabda bolalarning gavdasini to'g'ri tutishiga, chiroyli yurishiga, o'rtoqlari va kattalar bilan osoyishta va to'g'ri gapirishiga, xushmuomalada bo'lishiga asosiy e'tibor berish lozim. Geografiya va tabiatshunoslik darslarida tabiatga nisbatan o'quvchilarda havas uyg'otish zarur.

Rasm, chizmachilik, qo'l mehnati darslari bolalarga go'zallikni idrok etishni o'rgatadi. Bolalar o'zlari idrok etgan go'zallikni rasm, applikatsiya, loy va plastilindan, yog'och, qog'ozdan yasagan buyumlarida gavdalantiradilar. Aqli zaif bolalarda hissiyot va ichki kechinmalarning sustligi oqibatida ular namoyish etilayotgan suratlardagi voqealarning faqat yuzaki belgilarini idrok etish bilan kifoyalanadilar. Suratlardagi ichki yashirin ma'nolarni anglab yetmaydilar. Estetik tarbiyaning natijasi ijodiy faoliyatda ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, aqli zaif bolalarning tashqi dunyo haqidagi tasavvurlari yuzaki, idrok etishlari noaniq va differensiyalashmagandir. Shu sababli aqli zaif bolalar bilan estetik tarbiyaga oid sinfda, maktabda, sinfdan, maktabdan tashqari ish turlari tanlanganda shu xislatlariga e'tibor berish kerak. Aks holda qilingan ishlar natijasiz qolishi mumkin.

2.2. Maxsus maktablarda rasm darslari yordamida bolalarda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish usullari

Tasviriy faoliyat darsida yakka va frontal ish olib borish. Sinfda bolalar soni kamligi tufayli o'qituvchi har bir bola bilan alohida shug'ullanish imkoniyatiga ega. Tasviriy faoliyat darslarida nafaqat e'tiborni nutq rivojiga, suhbat qurish anglamog'ining tekshiruviga. Balki rassomchilik san'atini o'zlashtirishiga ham ahamiyat berish kerak, o'quvchilar chizish mobaynida qiynalganlarida, o'qituvchi uning o'rniga chizib bermasdan, balki qiyinchiliklarni yengishga yordam berishi kerak. Masalan: Rasmning fazoviy tuzilishi, uning umumiy shaklini yoki kompyuzisiyadagi yechimini to'g'ri chizishga o'qituvchi yordam berishi kerak. Tasviriy faoliyat darslarining hamma etaplarida frontel ish olib boriladi. O'qituvchi boshchiligida o'quvchilar yangi so'zlarni birgalikda qaytarishadi. Rasm chizish jarayonida qiyinchilikka duch kelgan o'quvchilarga o'qituvchi yakka yondoshadi.

Tasviriy faoliyat darsida, rasm chizish turlari va ularni olib borish:

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriy faoliyat darslarida quyidagi rasm chizish turlaridan foydalaniladi.

1. Predmetli rasm chizish va lepka;
2. Syujetli rasm chizish va lepka;
3. Fikrlash orqali rasm chizish va lepka;
4. Dekorativ rasm chizish va lepka;
5. Diplikasiya.

Predmetli rasm bolalarni sensor rivojlanishga predmetning shaklini tuzilishini, xajmini va rangini anglashga yordam beradi. Predmetli rasm chizish va lepka bajarilayotganda bolalarni asosan tushunishiga o'rgatiladi. Rasm chizish deganda nima qilishlarini, lepka (yopishtirish) deganda nima bilan shug'ullanishlarini tushuntiriladi. Rasm chizish jarayonida predmetni chizishga, naturadan chizdiriladi, so'ngra esa shu chizilgan predmetni tasavvur qilish orqali chizishga o'rgatiladi.

Syujetli rasm chizish va lepka tasavvur va fazoviy obrazli tafakkurini shu bilan birga ijodiy faollikni va mustaqillikni o'rtiradi.

Syujetli rasm chizish 2 turi mavjud:

A) tevarak atrofdagi hayotdan olingan mavzular asosida rasm chizish (Navro'z, yangi yil).

B) Abadiy asarlarga chizishda quyidagi illyustrasiya chizish: (ertak, hikoya, masal).

Syujetli rasm chizishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Tabiat xodisalari va predmetlar go'zalliklarini ajrata olish.
2. Rasm chizish uchun xos syujetlarni topa va tanlay bilish.
3. Rasmdagi narsalarning tuzilishi, katta bo'laklarining kichikka bo'lgan isboti.
4. narsalarning fazoviy xolatini to'g'ri tasvirlash alohida, narsalarning rangi va ularning bir-biri bilan munosabatini topa bilish.

O'qituvchi rasmning faqatgina mavzusini aytibgina qolmay uning mazmuni ham tushuntirib berishi kerak.

Syujetli rasm chizishda va lepkada biror bir voqyelikka mos tegishli syujetlar tasvirlab beriladi. Bunday faoliyatda o'quvchilar asosiy fikriga ega bo'lishlik shakllantiriladi. Shuningdek o'quvchilarning obrazlarining grafik tuzilishi va tasavvurlari boyitiladi. Tasviriy faoliyat darslarida o'quvchilar ko'rgan narsani eslab qolib uni rasmda aks ettirish, fikr yuritish qobiliyati rivojlanadi.

Predmetni kuzatayotganda uning detallarini alaniz qiladi. Rasm chizayotganda esa sintez qiladi. Fikr yuritib taqqoslaydi, predmetning xususiyatlarini abstraksiyalaydi. Undan keyin umumlashtiradi va nihoyat fikr yuritish jarayoni konkretlashtirish bilan tugaydi.

Maxsus maktablarda rasm darslari maxsus dasturlar asosida tuziladi. Rasm darslari nuqsoni bor bolalarning psixofizik kamchiliklarini inobatga olgan holda olib boriladi.

Korreksiya – to'g'rilash degan ma'noni bildiradi, o'quvchilar da mavjud bo'lgan kamchiliklar ta'lim – tarbiya asosida olib boriladi.

Rasm darslarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

- rasm chizishga o'quvchilarda qiziqish uyg'otish.

- Rasm chizish, yopishtirish (aplikasiya), yasash ko'rish haqida tushuncha berish.

- Rasmni predmeti bilan solishtirishga o'rgatish.

- O'quvchi larga rang, tasvir, shakl, kattalik, fazoviy joylashish haqida tushuncha berish va ularni tasvirga tushurishga o'rgatish.

Qo'l motorikasini va harakat-ko'rish kordinasiyalarini rivojlantirish.

Rasm chizishda o'quvchilarni analiz – sintez qilishga, ranglarni ajratishga o'rgatiladi. O'quvchilar yuqorida, pastda, oldinda, orqada kabi tushunchalarga esa bo'ladilar.

O'quvchilar bilan rasm darslarida individual hamda kollektiv bo'lib rasm chizish turlari olib boriladi.

Rasm darslarida bolalarning estetik didlari rivojlantiriladi, shuningek rasm chizishda ketma-ketlikka rioya qilish o'rgatib boriladi.

Rasm chizishni sistemali olib borishda propedevtik – tayyorlov ekanining ahamiyati katta. Propedevtik davrning asosiy vazifasi o'qituvchi har bir o'quvchining qobiliyati va bilish faoliyatini o'rganishdan boshlanadi, chunki rivojlanish nuqsonlari bor bolalarda rivojlanish kompleks buzilgan bo'ladi. Tayyorlov sezgilarni shakllantirish va boyitishdir. Ayniqsa quyi sinflarda rivojlanish nuqsonlari bor bolalar maktabga uydan keladilar. Masalan, hamma o'quvchilar ham shakl, katta – kichik, fazoviy joylashish haqida tushunchaga ega bo'lmaydilar.

Sensor rivojlanishini to'g'ri tarbiyalash o'yin, mehnat va kundalik faoliyatda amalsha oshirib boriladi. Bolalar predmetlarni qo'llari bilan ushlab ko'radilar, ranglarini ajratadilar. Bu ish faoliyatlariga rasm chizish ham kiradi, har bir oddiy predmetni chizishdan oldin, bolalarda diqqatni, ko'rish, taktil va harakat prosesslarini rivojlantirish uchun tayyorlov etapi olib boriladi. Asosiy vazifa harakatning nutq bilan birga olib borishiga qaratiladi.

Korreksion maqsadda turli xil didiaktik o'yinchoqlar (piramidalar, materika, sharlar), qurilish konstruktorlar, didaktik o'yinlardan (rangiga qarab tanla, "Geometrik loto") foydalaniladi.

Rasm orqali olib boriladigan didaktik o'yinlar o'quvchilarda mustaqillikni rivojlantirib boradi o'yin davomida korreksiyaning asosiy mazmuni shundan iboratki, buna o'quvchi mustaqil harakat qiladi va o'ylaydi, qiyinchilik bo'lganda o'qituvchi yordam beradi. Bunda o'quvchilar predmetlarni bir-biri bilan solishtiradilar, katta-kichikligini aniqlaydilar, ranglarni ajratadilar.

Propedevtik davrda o'yinlarni tashkil etish quyidagilardan iborat:

1. Predmet nomini, kattaligini topishni ajratishga qaratilgan o'yin va vazifalar;

2. predmetlarning formasini topishga, ajratishga, qaratilgan o'yin va vazifalar;

3. predmetlarning rangini topishga va ajratishga qaratilgan o'yin va vazifalar;

4. predmetlarning fazoviy joylashishini aniqlashga qaratilgan o'yin va vazifalar;

5. tasviriy san'at (faoliyat) jarayonida maxsus trafik topishriqlarga alohida e'tibor berish kerak. Bu vazifalar o'quvchilarda texnik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Qo'l harakatlarini rivojlantirish maqsadida gimnastik vazifalar ham bajariladi.

Masalan:

1. predmetning kattaligini aniqlashga qaratilgan o'yin va vazifalar;

o'qituvchi stolida turli xil kattalikdagi o'yinchoqlar, kubiklar, sharlar, matreshkalar, aylanalar.

Vazifa – eng katta kubikni ko'rsat;

Vazifa – eng kichik sharni ko'rsat;

Matreshkalarni kattasidan boshlab ketma-ket taxla.

2. Premet shaklini aniqlashga qaratilgan o'yin va vazifalar.

O'qituvchi stolida kubik va sharlar bor.

- o'quvchilarga kubiklar o'ng tomondagi karobkaga, shariklar chap tomondagi korabkaga joylashtirish topshiriladi.

- O'quvchilarga har xil formadagi figuralar solingan konvert beriladi. Ularni shakllarini ajratib bir xil qilib joylashtirish talab etiladi.

- O'quvchilarga olma, uzum, qovun, sabzi, loxo'ri rasmlari bor kartochkalar beriladi. Sabzavot va mevalarni ajratish o'quvchilardan talab etiladi.

3. Ranglarni ajratishga qaratilgan o'yin vazifalar:

- har bir o'quvchida har xil rangdagi geometrik figuralar yoki mayda premetlar bo'ladi. Bu figura va predmetlarni ranglar bo'yicha gruppalashtirish talab etiladi. Avval 2 ta rangdan iborat bo'lgan predmetlar olinadi, so'ngra ranglarning soni ko'paytirib boriladi.

- o'quvchilarda qizil, sariq, ko'k, qora, oq rangli kartochkalar bo'ladi. O'qituvchi qaysi rangli talaffuz qilsa o'quvchilar shu rangdagi kartochkalarni ko'tarishlari kerak.

4. Predmetning fazoviy joylashishini aniqlashga qaratilgan o'yin va vazifalar:

Doskaga katta ko'rgazma yoki qog'oz osib qo'yiladi va o'qituvchi topshiriq beradi;

- qog'ozning yuqori qismini ko'rsating;

- qog'ozning pastki qismini ko'rsating;

- qog'ozning past, o'ng tomonini ko'rsating;

- qog'ozning o'rtasini ko'rsating;

- o'quvchilarda rangli qalamchalar bo'lib namuna yordamida ularni taxlashga o'rgatiladi.

6. Texnika malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga grafik vazifalar:

Rasm chizishda grafik ko'nikmalarni mos qilish murakkab faoliyat xisoblanadi. Shuning uchun bu vazifalar maxsus tashkil etilgan prosessor – vazifalar yordamida amalga oshirishadi.

Bu quyidagilar:

1. Qo'l bilan to'g'ri vertikal chiziqlar chizish (katta stolbalar)
2. Qo'l bilan gorizantal chiziqlar chizish (yo'llar, simlar)
3. Qo'l bilan vertikal va gorizantal chiziqlar chizish zinalar, oyna, ramka, shaxmat doskasi.
4. qiyshiq chiziqlar chizish (yomg'ir urib yog'yapti, sharni ushlab turuvchi ish baland tog'lar).
5. Dugoobraz-bo'rtib to'lqinli chiqqan chiziqlar (tug'un chiqyapti, to'lqinli so'z, fontan);
6. Aylanali chiziqlar (sharlar, har xil rangdagi balonlar, zarvuz, olma).

Bu vazifalarni bajarishda quyi sinf o'qituvchilari bir necha marta takrorlash ishlari olib borish kerak. O'quvchilar bilan individual ish olib borilgandan so'ng taqlid orqali vazifalarni bajarishga o'tish kerak. Vazifalarni bajarishda o'quvchilar trafaretlaridan ham foydalanish mumkin, albatta o'qituvchi yordami bilan.

Rasm chizishni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilar bilan qo'l muskullarini rivojlantirish maqsadida gimnastikalar o'tkazishi zarur.

2.3. Maxsus maktab rasm darslarida bolalar lo'g'at boyligini rivojlantirish

Tasviriyl faoliyat darslarida aqli zaif o'quvchilar qanday faoliyatga kirishsalar, qanday predmetni chizishlari va qaysi o'quv qurollaridan foydalanish bosqichlari albatta olegofrenopedagog tomonidan nutqiy boshqarilib boriladi, har qanday faoliyat aqli zaif bolalarni nutqini aktivlashtirish, shakllantirishga, lug'atini boyitishiga qaratilgan.

O'quvchi xar bir dars uchun lug'at tanlashi kerak. Lug'at tuzishdan oldin o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni eshitish darajasini hisobga olish kerak.

Lug'at boyligini oshirish quyidagicha amalga oshiriladi. Nutqni rivojlantirish olegofrenopedagog tomonidan bolalarda predmetning katta – kichikligi, shakli tushunchalari shakllanadi. Tasviriyl faoliyatda esa bolalar vazifani amaliyl bajarib olingan tushunchalar kengaytiriladi, aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Har qanday faoliyat bolalar nutqini aktivlashtirishga, shakllantirishga, lug'atni boyitishga va nutqini mustahkamlashga qaratilgan, o'qituvchi har bir dars uchun to'g'ri lug'at tanlashi kerak. Lug'atga 4 qismdan iborat so'z va iboralarni kiritish mumkin.

1. So'z va ibora, bajarilayotgan ish faoliyatiga bog'liq ishlatiladigan materialning nomi (loy, qog'oz, bo'yoq, yelim,...) bajarilayotgan faoliyat (lepka, rasm chizish, bo'yoq, yopishtirish, shtrixlash) ish qurollarining nomi (qalam, bo'yoq qalam, qaychi, bolg'a).

2. So'z predmetning nomi va iborasi, boalar tasvirlayotgan predmet (shar, archa, qo'g'irchoq).

3. So'z va ibora, bolalarning idrok qilishlarm uchun yo'naltirilgan harakat (kuzatib chiq, barmoqning bilan aylantirib kuzatib chiq, paypaslab ko'rib chiq).

4. So'z va ibora, idrok qilish orqali mustahkamlash (rangning omi, geometrik formasi, hajmni belgilab olish).

Birinchi gruppadagi so'zlarni tasviriyl faoliyatda sekin-asta o'zlashtirib boriladi.

Ikkinchi gruppaga soʻz (soʻz-predmetning nomi)- tartib boʻyicha bolalar topish. Tasviriyl sanʼat faoliyatida soʻzlar predmet bilan yangicha bogʻlanishi.

Uchinchi va toʻrtinchi gruppalaridagi soʻzlarga alohida ahamiyat beriladi. Bolalarning diqqatini predmetga va uning xususiyatiga qaratiladi. Soʻngra esa bolalar idrok qilgan obrazi mustahkamlanadi. Masalan: Tasviriyl faoliyatda olma rasmini tasavvur orqali chizish jarayonida oʻqituvchi “olma shar shakliga oʻxshaydi. Yuqorisida chuqurchasi bor, chuqurchasida dumchasi bor”, aytilayotgan soʻzlar (naborniy platno) qoʻyiladigan choʻntakchaga qoʻyiladi. Mashgʻulot uchun olingan lugʻat aniq koʻrsatilishi lozim. Tasviriyl faoliyatda foydalanilayotgan nutq materialining koʻp qismi bolalarga tanish boʻlishi lozim. Oʻqitishnin 1-2 yilida tartibli har bir mashgʻulotga ikkintadan ortiq yangi soʻz berish mumkin emas, oʻqitishning keyingi yillarida 3-4 tadan ortiq yangi soʻz berish mumkin emas.

Aqli zaif bolalar tasviriyl faoliyatida oʻquvchilarning lugʻati ortadi, nutqi aktivlashtiriladi. Aqli zaif bolalar shaxs sifatida shakllanishlarida nutqning rivojlanish ahamiyati katta. Shunday ekan, yuqorida aytib oʻtganimizdek, har bir faoliyatda bolalar nutqini rivojlantiriladi. Har bir tasviriyl faoliyat darsida, chizishdan oldin mavzudan kelib chiqqan holda suhbat, savol javob oʻtkaziladi. Oʻqituvchi sinfda bolalar soni kamligi tufayli, har bir bola bilan ogʻzaki muloqotga kirishish, ikoniyatiga ega. Oʻquvchilar rasm chizishda analiz-sintez qilishga, rasmlarni ajratishga oʻrgatiladi. Oʻquvchilar yuqorida, pastda oldinda, orqala, uzun qisqa kabi tushunchalarga ega boʻladilar. Mavzudan kelib chiqqan holda har bir darsda yangi lugʻat va tushunchalarga ega boʻladilar. Chizish jarayonida ham, oʻqituvchi bolalarni savolga tutadi, sen nimani rasmini chizyapsan? Rangi qanaqa? Nimaga oʻxshaydi? shu kabi savollar bilan murojaat etib, bolalarni ogʻzaki nutqini tekshiradi va rivojlantiradi. Ayrim aqli zaif bolalar soʻzlari va gaplari bir-biriga bogʻlanmagan holda, soʻz yasovchi, soʻz oʻzgartiruvchi, kelishik qoʻshimchalarini tashlab gapirishadi, shunda oʻqituvchi bolalar nutqini toʻgʻirlab gapirishga, toʻliq gapirishga oʻrgatadi.

XULOSA

Ma'naviy – ahloqiy jihatdan yetuk har tomonlama sog'lom bo'lgan barkamol shaxsni shakllantirish jahon talablari darajasiga javob bera oladigan. Raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. “Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi hayotimizni taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan isloxotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri bularning barchasi, avvalam bor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini anglab etmoqdamiz” I.A.Karimov ushbu so'zlari orqali mamlakatimizda ta'lim siyosat darajasiga ko'tarilganligi ulardagi mavjud muammolar davlat kelajagiga ham ta'sir ko'ratishi mumkinligi alohida ta'kidlab o'tilmoqda.

Alohida yordamga tarbiyaga muhtoj bo'lgan bolalar Respublikamizda 8 turdagi maxsus maktab va maktab internatlarida ta'lim - tarbiya olib kelmoqdalar. Xususan kar va zaif eshituvchi bolalar, ko'zi ojiz zaif ko'ruvchi, kar soqov bolalar, og'ir nutqiy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar, oligofrenog (aqlan zaif) bolalar uchun yordamchi maktab va maktab internatlari harakat tayanch buzilgan bolalar ruxiy rivojlanishi sustlashgan (RRS) bolalar uchun tenglashtirilgan, tenglashtiruvchi sinflar maxsus maktablar, ular qoshida bog'cha va guruhlar tashkil qilingan.

Aqli zaif bolalar maxsus maktab internatlarining asosiy vazifasi alohida yordamga muhtoj bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini bartaraf etish undagi barcha a'zolar funksiyalarini faol ravishda yaxshilash, ruhiy jarayonlarni ijobiy tarkib toptirish, kamchiligi bor bolalarda mustaqil vatanimiz uchun eng zarur asosiy sifatlarini, barkamollikani hamda ahloqiy odat va fazilatlarini shakllantirishdan iborat.

Demak, bolalar bilan ishlash jarayonida ularning faoliyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirsak maqsadga muvofiqdir.

Yordamchi maktab o'quvchilarining tasviriyl san'at darslari bo'yicha o'z imkoniyatlari, iste'dodlarini yuksaltirish yuzaga chiqarish maqsadida 32 sonli yordamchi maktabni 2 sinf o'quvchilari ustida tajriba sinov o'tkazdim. 2 sinf o'quvchilariga rasm darslarini Xasanova Nodira dars o'tgan bu sinfda 8 nafar o'quvchi bor. 8 nafar o'quvchidan 3 nafari Debillikning og'ir darajasi qolganlari yengil darajasi. Men bu sinfda amaliyot o'tash jarayonida rasm darsini o'tganimda mavzu yuzasidan o'quvchilarni tabiat qo'yniga olib chiqdim. Baxor tabaitini o'z ko'zlari bilan ko'rgandan keyin oppoq qog'ozga tushurishi oson kechdi. Sababi ularning dunyo qarashini tasavvuri kengaydi. Baxor tabiati bo'yicha tasavviriyl bilimlari oshdi. Dars mobaynida bunday ekskursiyalaridan foydalanilganim o'quvchilarning yaxshi o'zlashtirishiga yordam berdi. Masalan shu sinfning jami o'quvchilarini 100 foiz deb oladigan bo'lsak. Yaxshi o'quvchilar soni 60 foizga oshdi. Darslar maktablarda o'tiladigan rasm darslarining yanada samaradorligini oshirish maqsadida darslarning mazmunli o'tishi uchun yuqoridagi ko'rsatmalarga qo'shimcha sifatida qo'yidagi tavsiyalarni ishlab chiqdim.

- o'quvchilarning tasavviriyl san'at orqali ranglarni ajrata bilishga o'rgata borish;
- Yordamchi maktab o'quvchilarini mehnatga ijtimoiyl hayotga o'rgatib borish;
- O'quvchilarni tasavvuriyl san'at darslari orqali tasavvurini o'yg'otishb idrokini bilish faoliyatini shakllantirish;
- Yordamchi maktab o'quvchilarining qo'l motorikasini rivojlantirish orqali qo'l mehnatiga aqliyl xamda jismoniy mexnatga jalb qilish;

Maxsus maktablarda rasm darslar orqali o'quvchilarning lo'g'at boyligini oshirish so'z boyligini rivojlantirish, korreksion tarbiyaviyl yo'nalganligiga ahamiyat berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. 1998.
2. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O`zbekiston. 1992.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O`zbekiston. 1995.
4. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 1998.
5. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni. 1997.
6. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 1997.
7. Mustaqil O`zbekistonning yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi konsepsiyasi. Toshkent. O`qituvchi. 1994.
8. Shomaxmudova R.Sh., Mo`minova L.R. «Bog`cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish». T., 1981 y.
9. Ayupova M. «Korreksion ishlar metodikasi. (ma’ruzalar matni)». T 2005 y.
10. Hakimova M.F., Raxmonova V.S. Maxsus maktab internat (maktab)larda tarbiyaviy ishlarni uyushtirish va rejalashtirish. /Metodik tavsiyanoma.-Toshkent, RTM. 1998. -27 b.
11. Hakimova M.F. Maxsus maktablarda ta’lim-tarbiyaning pedagogik asoslari O’quv qo’llanma. - Toshkent, Mehnat. 2000. -94 b.
12. Hakimova M.F. Kasb-hunar maktablarida «Keng assortimentdagi kiyimlar tikuvchisi» mutaxassisligiga tayyorlash. /Metodik tavsiyanoma. – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O’MK. 2004. - 52 b.
13. Mamedov K., Shoumarov G. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent, 1994, 122-125-betlar.
14. P.M.Po’latova Maxsus pedagogika. “Oligofrenopedagogika”: - T. G’.G’ulom nomidagi nashriyot 2005 yil.
15. I.G.Eremenko «Oligofrenopedagogika», K., 1985.

16. «O'zbekiston Respublikasi aqliy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish konsepsiyasi». Xalq ta'limi, 1993.
17. P.M.Yusupova «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» Toshkent. 1999.
18. P.M.Po'latova «Yordamchi maktab-internatlarda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish». Toshkent. 1996 yil. 20 b.
19. N.Egamov Tasviriy san'at kitobi 1 sinf:-T.; Toshkent 2010 yil.
- 20.N.Abdullayev, A.Sulaymonov Tasviriy san'at kitobi 7 sinf: - T.: 2007 yil.
21. R.Hasanov Tasviriy san'at o'qitish metodikasi amaliy mashg'ulot: - T...: 2006 yil.17-20 b.
22. Tasviriy san'at 1-5 sinflar uchun dastur. – T.: 2010 yil.
- 23.“Maktab va hayot” jurnali., 2007 йил. № 3 сон. 20 – 22 b.
24. WWW.pedagog.uz
25. WWW.TDPU.uz
26. Ziyonet.www@mail.ru

Ilova

1 SOATLIK DARS ISHLANMA

Mavzu: Manzarali razm chizish

I. Darsning maqsadi.

a) Ta'limiy maqsadi.

O'qivchilarning ijodiy qobilyatlarini shakllantirish, rasm chizish bo'yicha malakalarini oshirish.

b) Tarbiyaviy maqsad.

o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash tabiat go'zalliklaridan zavq olishga o'rgatish.

c) Korreksion o'quvchilar bilan birga ishlash

1.Ranglarni farqlashga o'rgatish.

2.Qalamni to'g'ri ushlashga o'rgatish.

II.Darsning usuli.

a) Ko'rsatma, tushuntirish, amaliy.

III.Darsning jihozi.

a) Ko'rgazmali qirollar, texnika vositcisi, rasm daftar, rangli qalamlar.

IV. Darsning borishi.

a) Tashkiliy qism.

Davomatni aniqlash, o'tilgan mavzu yuzasidan savol javob, o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish

b) o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

V. Yangi mavzu bayoni.

Dars fasllar haqidagi suhbat bilan boshlandi. O'quvchilar bugun darsimizda o'zimiz hohlagan manzarali rasmni chizishimiz mumkin. Chizganingizda shoshilmasdan, qalamni bosmasdan, yordamchi chiziqlar asosida rasmni chizsangiz sifatli va chiroyli chiqadi.

Bo'yashga shoshilmang. Chizishni tugatib yordamchi chiziqlarni o'chirilgandan so'ng mening ruhsatimdan so'ng bo'yab chiqasilar. Hozir sizlar bilan biz baxor fasli rasmini chizishni o'rganamiz. Berilgan ketma-ketlik asosida baxor rasmini chizamiz.



2^v sinf o'quvchisi Xudoyberdiveva Y

VI. Darsni mustahkamlash.

1. Baxorda qanaqa gullar ochiladi?
2. Baxorda qanday qushlar uchib keladi!
3. Ularning rangi qanday?

VII.Darsning yakuni baholash.

Uyga vazifa.

Rasmni bo'yab yakunlab kelish.


TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARI UCHUN KERAKLI JIHOZLAR



Rangli qog'oz



Rangli qalamlar



Plastilin



Steklar



RANG TUSLARI VA UNING NOMLARI

QIZIL



ZARG'OLDOQ



SARIQ




KO'K



MOVIY



HAVORANG



YASHIL




JIGARRANG




QORA








ANDAZA YORDAMIDA UCHBURCHAK CHIZISH VA BO'YASH




UCHBURCHAK RO'MOLCHA BILAN TANISHISH



ODDIY DARAXT RASMINI CHIZISH
VA BO'YASH




TASVIRIY SAN'AT TURLARI



RANG TASVIR



HAYKALTAROSHLIK








GRAFIKA

AMALIY BEZAK SAN'ATI NIMA?



Kashtachilik. Bu so'zana


Kvadrat ichiga naqsh chizish







Kiyimlarda qanday
geometrik shakllar
chizilgan?



7